

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UDK  
Qo‘lyozma huquqida

MAGISTRATURA BO‘LIMI  
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

**SA‘DULLAEVA SHOIRA**  
**«TOG‘AY MUROD ASARLARIDA MA‘NAVYIY-AXLOQIY**  
**MUAMMOLAR TALQINI»**

Mutaxassislik: 5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

Davlat attestatsiya komissiyasida  
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:	dots. B.Atashev
Kafedra mudiri:	f.f.n. S.Matyakupov
Ilmiy rahbar:	f.f.n. S.Matyakupov

**NUKUS – 2014**

**MUNDARIJA**

Kirish.....	3
I BOB. DAVR QIYOFASI VA BADIY HAQIQAT .....	7
II BOB. MA'NAViy-AXLOQiy MUAMMOLAR TALQINI.....	30
III BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI.....	62
XULOSA.....	89
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	91

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzuning asoslanishi va dolzarbligi.** Milliy istiqlol mafkurasining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda ajdodlarimiz merosidan ular yaratgan eng yaxshi urf-odatlardan voz kechmaslik aksincha, ularni davom ettirish va boyitishga alohida e‘tibor berilayotgani bejiz emas. Prezidentimiz ma‘naviyatning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida maxsus to‘xtalib, quyidagilarni e‘tirof etgan edi: «Ma‘naviyat haqida gap ketar ekan, men, avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksaklikka da‘vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e‘tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman».<sup>1</sup>

Demak, yuksak ma‘naviyat uchun kurash, unga erishishda hajvning o‘rni, ahamiyati beqiyos darajada ulkandir. Shu jihatdan hajv ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida, yetakchi pafos turi sifatida adabiyot va san‘atda o‘z o‘rniga ega. Bir so‘z bilan aytganda, istiqlol davri adabiyotida insonning ma‘naviy-axloqiy kamoloti, shaxsning hozirgi hayot va jamiyatdagi o‘rni o‘rni muammosini ifodalashga bo‘lgan e‘tibor birinchi o‘ringa qo‘yilmoqda. Mamlakatimizning ma‘naviy hayotida kun tartibida turgan mazkur vazifani bajarishda iste‘dodli adiblar zimmasiga shubhasiz katta mas‘uliyat tushadi. Istiqlol davri adabiyotining ma‘naviy axloqiy sohasidagi tinimsiz izlanishlari hozirgi paytda o‘z samarasini bermiqda. Bu narsalarni iste‘dodli adib bir qancha hikoyalar, qissa va romanlar muallifi Tog‘ay Murod ijodidan kuzatish mumkin.

Adabiyotimizning hozirgi taraqqiyot bosqichining o‘ziga xosligi shundaki, unda falsafiy va axloqiy-ma‘naviy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Bunday ma‘naviy-ahloqiy qadriyatlarni badiiy ta‘sirchan ifodalash faqat odamlarning ruhiy ehtiyojmandligi tufayligina emas, balki

---

<sup>1</sup> Karimov I. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O‘zbekiston, 1999. - B. 17.

adabiyotning ham ma'naviy ehtiyoji tarzida ro'y bermoqda desak yanglishmaymiz. Tog'ay Murod ijodiy izlanishlarining rang-barang hayotiy materiallar asosida ruyobga chiqqanligi ayniqsa quvonchlidir. Chunki: «Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar, xarakterlar yaratar ekan, u o'z fantaziyasining bandasi bo'lib qola olmaydi. Yozuvchi istagidan ustun turadigan qalamining yo'nalishini belgilab beradigan ma'lum kuchlar borki, san'atkor ular bilan hisoblashmasdan iloji yo'q. Shulardan biri hayot mantiqidir»<sup>1</sup>.

Badiiy ijod qaysi janri bo'lmasin faqat salmoqdor fikr, mustaqil qarashni taqozo etadi. Ijodkor o'zini ruhan erkin his etgan taqdirdagina chinakam asar maydonga keladi. Istiqlol ijodkorlarni sho'ro davrida mudom taqiq qilib turadigan son-sanoqsiz ko'zga ko'rinadigan va ko'rinmaydigan ruhiy kishonlardan ozod etdi. Birgina moddiloncha falsafaga asoslangan, barcha birdek amal qilishi lozim bo'lgan soata ijodiy metodning qat'iy rad etilishining o'zi ijodkor uchun benazir saodat va mislsiz imkoniyat. Lekin aytish kerakki o'sha davrda yashab o'sha davr illatlarini nozik psixologik tahlillar orqali ifoda qilgan ijodkorlar ham bo'ldi. Ijodkor shaxs birinchi navbatda uni o'zligidan ayirgan mustabid tuzumni, ijtimoiy voqelikni ko'ngil prizmasidan o'tkazadi. Buning natijasida anglash jarayoni kechadi.

Bu jarayon ijodkor ongiga yuz berajak evrilishlarga olib keladi. Adabiy jarayonda yuz beradigan silsila-bir vaqtda muayyan bir mavzu yuzasidan adabiyotda mavjud janrlarda bir guruh ijodkorlarning asar yaratishlari natijasida yuzaga keladi. T.Murodning yuqorida qayd etilgan romanlari va boshqada qissalarida mazmunan yaqin o'tmishdagi xalq taqdiri-kechmishi badiiy talqinga jalb etilar ekan, voqelikni yozuvchi qanday tafakkur etsa, badiiy ijod shunday munosabat natijasida yuzaga keladi.

---

<sup>1</sup> Qo'shjonov M. Hayot va nafosat. -T.: Fan, 1970. -B. 16.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Adib ijodining naqadar sehrli va nafis san'atkorlik darajasiga ko'tarilganligini dalillash maqsadida uning turli janrlarda yaratilgan asrlari tahlil qilindi. Xususan, «Otamdan qolgan dalalar», «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romanlari va hikoya va qissalariga yangicha qarashlar bildirildi.

**Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari.** Mavzuni yoritishda quyidagi maqsad va vazifalar belgilandi:

- adib ijodidagi inson va uning ichki kechinmalarini tahlil qilish;
- T.Murod asarlaridagi badiiy psixologizm masalasini yoritish;
- davr qiyofasi va badiiy haqiqat muammosini o'rganish;
- ruhiy kechinma va uning badiiy ifodasini tahlil qilish;
- adib asarlarida folklor namunalari ishlatilishini o'rganish.

**Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili.** Dissertatsiyada jahon, rus va o'zbek adabiyotshunosligida badiiy ijod nazariyasi, adabiy janrlarning o'ziga xosligi hamda Tog'ay Murod ijodiga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar va ilmiy maqolalar atroflicha o'rganib chiqildi. Shuningdek, ulardan adib ijodining sho'akllanishi va taraqqiyoti masalasiga bugungi kun nuqtai nazaridan munosabat bildirildi.

**Tadqiqot uslubi.** Tadqiqotni yozish jarayonida adabiyotshunos olimlarning T.Murod ijodi xususidagi tadqiqot va ilmiy maqolalarga tayangan holda qiyosiy-badiiy tahlildan keng foydalanildi. Badiiy asarda o'zining ifoda etmoqchi bo'lgan fikrlarini o'ta darajada nozik va polifonik tarzda aks ettirishda T.Murod ijodi nihoyatda qimmatlidir. Xususan, mumtoz adabiyotimizdagi saj' san'atini eslatadigan va Tog'ay Murod ijodigagina xos bo'lib, zamonaviy o'zbek adabiyotida yangicha ifoda talqini sanalgan bu xil matn adabiyotimizda tamomila yangi hodisa deyish mumkin.

Shu ma'noda belgilangan masalalarni tadqiq etishda jahon, rus, o'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlarga tayanildi. Qahramon tanlash,

badiiy idrok va ifoda etishdagi adiblarning o'ziga xosligini yoritishda qiyosiy-tarixiy o'rganish metodidan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Hozirgi o'zbek adabiyotida bema'ni kechgan shaxs qismatining evropacha modernistik talqinidan farq qiluvchi o'ta milliy, xalqona yo'li ham mavjud ekanligi T.Murod asarlarida o'z aksini topgan. Uning deyarli barcha asarlarida inson shaxsi va unga e'tibor masalasi asosiy diqqat markazida turadi. Bu muammolarni ifodalashda ko'pgina badiiy tasviriy vositalardan foydalanadi.

T.Murod so'z qo'llash va badiiy dallash san'atini qahhorona uslubda o'zlashtirgan. U har so'ziga teran ma'no yuklaydi. Shuning uchun ham adib ijodini kengroq yo'sinda batafsil o'rganish hamda ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqarish maqsadga muvofiqdir. Zero, T.Murod asarlarida teran falsafiy va ma'naviy-axloqiy muammolar keng ko'lamda aks ettirilgan bo'lib ijodiy izlanishlari rang-barang hayotiy materiallar asosida ro'yobga chiqqan.

**Dissertatsiya tarkibi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 93 sahifani tashkil etadi.

## I BOB

**DAVR QIYOFASI VA BADIY HAQIQAT**

Badiiyat olamidagi eng asosiy o'zgarish shundan iboratki, san'at, adabiyot, adabiyotshunoslik yakkahokim mafkura iskanjasidan xolos bo'ldi, san'at va adabiyotning erkin, xilma-xil psixologik, falsafiy-estetik o'zaklar bo'ylab rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Eng muhimi ma'naviyat bobida milliy va umuminsoniy, qadimiy, qadimiy va ilg'or zamonaviy qadriyatlarni ardoqlash, ularni yangi asosda qaror topdirish bosh masalaga aylanmoqda.

Bugungi nasrimizdagi yangi jarayonlar, ma'naviy shakliy-uslubiy izlanishlar hammadan ko'proq roman janrida yorqinroq namoyon bo'layotir. Ayniqsa so'z san'atining o'zak masalasi-insonni anglash, inson tabiatining qalbining tushuntirish qiyin bo'lgan sir-asrorlarini taftish etish, inson jumbog'i ustida astoydil bosh qotirish, eng muhimi bu borada odatdagi andozalardan qochib yangi yo'llar aqtarish adabiyotimizda etakchi tamoyilga aylanib borayotir. Insonni anglash, inson shaxsini tahlil talqin etishda bizda uzoq yillar ustuvor bo'lgan ijtimoiy axloqiy yondoshish an'anavi davom etgani holda XX asr jaxon adabiyotida keng tarqalgan estetik falsafiy oqimlar tajribalariga astoydil qiziqish, qolaversa, Sharq adabiyotining biron merosi tasavvuf falsafasi va estetikaga qaytish hozirning o'zidayoq o'z samarasini bermoqda.

Milliy istiqlol ta'sirida jamiyatimizda kechayotgan tub islohatlar natijasida ro'y berayotgan o'zgarishlarning inson ongida sintez qilinishi hozirgi adabiyotiga yangi inson obrazini olib kirdi. Mana shunday yangi yo'nalishdagi asarlar yaratib, ularda o'z qahramonlariga o'ziga xos ism berib, ularning psixologiyasi orqali asar mazmuniga katta ma'no yuklagan ijodkorlarimizdan biri Tog'ay Muroddir.

Bugungi kunda milliy istiqlol davri o'zbek romanchiligi salnomasida T.Murodning «Otangdan qolgan dalalar» va «Bu dunyoda o'lab bo'lmaydi» romanlari birinchilardan bo'lib qayt etiladi.

Milliy istiqlol davri romanlar tabiatidan kelib chiqqan holda tamoyillarga ajratadigan bo'lsak, roman uslubi tamoyil shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Roman muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim komponentlardan biri bo'lmish yozuvchi uslubi asar poetikasini yuzaga chiqaruvchi asosiy omil hisoblanadi. Masalan: Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani falsafiy roman, usluban izchil tahliliy yo'nalishga mansub. Shu o'rinda yozuvchi tafakkurida tug'ilayotgan roman g'oyasi o'z uslubi bilan yuzaga kelishini yodda tutgan holda yozuvchi «Otamdan qolgan dalalar» romanini yaratishdan asosiy maqsadi mustabid tuzum mohiyatini ya'ni o'sha davrning haqiqiy qiyofasini, unga olib keluvchi omillarni, uning ayanchli asoratlarini bir xalq timsoli tarzida o'rganish, badiiy talqin qilish orqali falsafiy mushohada yurgazish. Ana shu fikrlardan kelib chiqqan holda Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanini-ijtimoiy falsafiy, «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romanini esa ijtimoiy psixologik roman deb atasak maqsadga muvofiq bo'ladi hamda bu ikki roman va adib ijodiga xos bo'lgan hissa hikoyalar tadqiqot mavzuini ochib berishda asosiy manba bo'ladi. Yuqoridagi asarlar haqida ishning qolgan qismlarida batafsil tahlil orqali tanishishga harakat qilamiz.

Shunday qilib adabiyotimiz mustaqillik yillarida o'tmish mavzularini istiqlol mafkurasi asosida yangicha talqin va tasvir etish yo'llaridan borib jiddiy yutuqlarga erishdi. Bunday o'sish izlanishlarni zamonaviy mavzular talqinida ham ko'rish mumkin. Darvoqe, mustaqillik davriga kelib ko'p mavzularni tasvirlashda avvallari noto'g'ri mezonlarga zamonasozlikka, sovet voqeligini bo'yab-bezab; ortiqcha maqtab aks ettirishga chek qo'yildi. Masalan adabiyotimizda uzoq yillar davomida paxtakorlar mehnati, ayniqsa,



paxtakor xotin-qizlar mehnati juda oson ish tarzida yuzaki dabdabali bayramona kayfiyatda tasvirlab kelishdi. Bu narsalarning asli qanday ekanligini biz Dehqonqul («Otamdan qolgan dalalar») obrazi orqali aniq anglab etdik.

Demak mustaqillik tufayli adabiyotda chin hayotga chuqur kirib borish haqqoniylik, tanqidiy ruh kuchaydi. Bu davrda xalq va mamlakat hayotini yaxshilashga mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan mavzular, oddiy inson qadr-qimmatini tiklash va ko'tarish, ona Vatan va ma'naviyat masalalari birinchi o'ringa chiqdi. O'zbek nasrida yangi zamon ruhini real ifodalovchi asarlar yaratildi. Bu nasriy asarlarning aksariyatida sobiq sovet davridagi mamlakat va xalq hayotini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil etib tasvirlash ustuvorlik qiladi.

Bugungi o'zbek adabiyotida be'ma'ni kechgan shaxs qismatining ovro'pachi modernistik talqindan farq qiluvchi o'ta milliy xalqona yo'li ham mavjud. Bu jihatdan T.Murod tajribalari ibratlidir. Tog'ay Murod nasrimizda qissa va romanlari bilan ilmiy-adabiy jamoatsizlikning nazariga tushgan adibdir. U adabiyot atalmish «ulkan qasr» (R.Tagor)ni oyog'i yerdan duzilmay o'z badiiy asarlari bilan zabt eta oldi.

Tog'ay Murod Mengnorov o'zbek milliy adabiyotining o'ziga xos ovozga ega bo'lgan noyob vakillaridan biridir. U 1948- yili Surxondaryo viloyatining Denov tumani, Xo'jasoat qishlog'ida tavallud topgan. Shu qishloqdagi 43- sonli o'rta maktabni 1966- yilda tugatib, o'sha yili Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan.

T.Murodning talabalik yillari uning yozuvchi bo'lib yetishuvida juda katta vazifa bajardi. T.Murod mazkur fakultetda tahsil olgan paytda o'sha bilim o'chog'ida Halima Xudoyberdieva, Usmon Azim, Erkin A'zamov, Mirpo'lat Mirzaev, Nodir Normatov, Ismoil To'xtamishev kabi o'nlab

bo'lg'usi shoir va yozuvchilarxam o'kishar edilar. Tabiiyki, ular orasida ijod haqida, hayotning turli masalalari haqida bahs munozaralar bo'lib turardi.

Yozuvchining ilk mashqlari xuddi mana shu davrlarda o'ziga xos muhokamadan o'tib, ma'qullangan, ijodkorga yana asar yaratishga turtki bo'lgan bo'lsa ajab emas. 1973- yilda universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan T.Murod respublika radiosining chet ellik vatandoshlar uchun eshittirishlar beradigan «Vatandoshlar» bo'limi tahririyatida 1976- yilgacha bo'lim muharriri vazifasida faoliyat ko'rsatdi.

T.Murod 1973-1974 yillar oralig'ida sobiq sovet armiyasi safida xizmatda bo'lib qaytdi. Harbiy xizmatdan keyin esa, 1976-1978 yillarda «O'zbekiston fizkulturachisi» ro'znomasida tarjimon, 1982-1984 yillarda esa, «Fan va turmush» jurnalida bo'lim muharriri bo'lib ishladi. 1985-1987 yillar oralig'ida T.Murod Moskvadagi M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutida tahsil olib qaytdi.

Yozuvchining ilk ijodi namunasi sifatida 1976- yilda «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi nashrdan chiqdi. Qissa nashrdan chiqishi bilanoq adabiyot ixlosmandlari va keng adabiy jamoachilik tomonidan iliq kutib olindi. Atyish mumkinki, ushbu asar o'zbek adabiyotiga yangi bir talant sohibi kirib kelayotganidan darak berardi. Qissada Bo'ri polvon, Tilovberdi, Abilpolvon obrazlari orqali o'zbek milliy kurashi o'z badiiy ifodasini topdi.

Adibning 1979- yilda bitilgan «Ot kishnagan oqshom» qissasi adabiyotshunos va kitobxonlar ishonchini chinakamiga oqladi. T.Murod birinchi qissasida ming yillardan buyon xalqimiz maishiy va madaniy turmushida katta o'rin egallab, farzandlarimizni mard, vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim tarbiyaviy omil vazifasini o'tab kelayotgan, lekin sho'rolar davrida e'tibordan qolgan milliy sport turi, olish, ya'ni kurash haqida kuyinib yozgan edi. «Ot kishnagan oqshom»da esa xalqimiz xuddi shunday yana bir qadriyati-ko'pkari, ya'ni uloq sporti haqida o'ziga xos

badiiy haykal yaratadi. Asar bosh qahramoni – tarlon ot kitobxon qalbiga qadrдан bir odamday, tanishi, do‘stiday kirib boradi. Asar nohaq tanqidgaxam uchraydi.

Yozuvchining 1980- yilda chop etilgan «Oydinda yurgan odamlar» qissasi T.Murodninggina emas, o‘zbek milliy adabiyotining noyob namunasi sifatida kutib olindi. Qissa qahramonlari Qoplون va Oymomo farzand orzu ilinjida kun, oy, yillarni bir-biriga ulab yashashadi. Hali tug‘ilmagan go‘dakning birisi bobosi, biri momosi bo‘lib, zurriyotni, bir-birlarini e‘zozlashadi, ardoqlashadi. Asar qahramonlari fojiasi umid va yorug‘likka to‘la mungli, xazin bir qo‘shiq sifatida kitobxon ko‘nglini larzaga soladi, xotirasida manguga qoladi. T.Murodning 1985- yilda yaratgan «Momoer qo‘shig‘i» qissasi o‘z g‘oyasi, adabiy yo‘nalishi bilan yozuvchining boshqa ko‘shiq-qissalaridan ajralib turadi. Qissada milliy zamindan oyog‘i uzilgan, Vatan tuprog‘ida yashab, yuragida yurt tuyg‘usi bo‘lmagan 80-yillar mafkura qurbonlari obrazlari g‘arb adabiyoti sig‘indisi-bandasi bo‘lib qolgan ijodkor timsolida o‘zbekona kinoya bilan tasvirlanadi.

Tog‘ay Murod 1986-1992 yillar davomida o‘zining ilk romani «Otamdan qolgan dalalar» asari ustida ishladi. Roman T.Murodning talanti qirralarini adabiy jamoachilik va keng kitobxonlar ommasi oldida yana bir bor namoyish qildi. Unda butun umri bo‘yi ketmon chopib, mustamlakka yurtda kosasi oqarmay kelgan o‘zbek dehqonlarining umumlashgan obrazi Dehqonqul timsolida chizib beriladi. Asarda Chor Rossiyasining Turkistonga bostirib kelishi va uning oqibatlari, Oktyabr Inqilobi nomi bilan tarixga kiritilgan davlat to‘ntarishi, Sho‘rolar davridagi turli qatag‘onlar kabi ijtimoiyhayot bilan parallel ravishda o‘zbeklarning maishiy turmushi, dehqonlar hayotining o‘ziga xos jihatlari, milliy urf-odatlarxam o‘ziga xos usulda badiiy kashf etildi.

T.Murod iste'dodli tarjimon hamdir. U 1974-1975 yillarda Jek Londonning «Boyning qizi» dramasi va boshqa ko'pgina hikoyalarini o'zbek tiliga tarjima qilib, nashrdan chiqardi. 1989- yilda esa, Ernest Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarini mahorat bilan tarjima qilib, chop ettirishga muvofiq bo'ldi.

Abdulla Qodiriydan boshlangan yangi o'zbek nasri XX asrning 60-70 yillar davomida, garchi unda o'ziga xos iste'dod mo'l bo'lsada, til ifoda bobida, asosan, Qodiriy kashfiyotlari doirasida rivojlandi. T.Murod asarlaridagi ifoda, hikoya yo'sini esa etmish yillik milliy o'zbek nasrida tamomila boshqacha, o'zgacha o'zanni tashkil etadi. T.Murod o'tgan asrning 70- yiillarda adabiyot maydoniga kirib keldi. Dastlab mayda hikoyalar yozib yurtdi. Ularda iste'dod jilolari mavjudligini birov payqadi birov payqamadi. 1976- yil «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi «Sharq yulduzi» jurnalida e'lon etildi-yu birdoniga uning nomi el og'ziga tushdi, muhokamalarda, maqolalarda asar yilning eng yaxshi qissasi deb e'tirof qilindi. So'ng birin keyin «Ot kishnagan oqshom (1979), «Oydinda yurgan odamlar» (1980), «Momo er qo'shig'i» (1985) qissalari chiqdi. Bu qissalari uchun adib Respublika yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi.

T.Murod 1986-1991 yillar «Otamdan qolgan dalalar» romani ustida ishladi, asar 1993- yil dunyo yuzini ko'rdi. Roman 1994- yili istiqlol davri o'zbek adabiyotining ilk etuk namunasi sifatida A.Qodiriy nomidagi Davlat mukofotig sazovor bo'ldi. Shundan so'ng T.Murod 1994-1998 yillar oralig'ida «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romanini yozdi va uni 2001- yil nashr qildirdi (bu kitobga bir necha hikoyalar va maqolalar ham kiritilgan).

T.Murod mazkur asarlarining barchasida el-yurt keng xalq ommasi davrini ijtimoiy tiplar orqali ifoda qilib, davr qiyofasini badiiy dalillab bera oldi. Ulardan teran ma'no nozik psixologizm orqali o'sha davr ustidagi o'z

ko‘z-qarashlarini o‘z fikrini, o‘z so‘zi bilan oshkor eta oldi. Ushbu asarlarining barchasining o‘ziga xos yaratilish tarixi bor, adib bularni shunday xotirlaydi:

«Men o‘rta maktabni bitirib shunday niyat etdim: o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha o‘ylanmayman oila qurmayman, biror ifoda faqat tarixchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko‘zladim: faqat jahon adabiyotini o‘qish. Faqat o‘qish, o‘qish, o‘qish, qo‘l qotib qolmasini uchun mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo‘lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon shuhrat qizg‘anmadim.

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda «Yulduzlar mangu yonadi» nomli birinchi qissamni yaratdim.

Men bu qissam bilan g‘animlarimga:

«Mana men kimman degan bo‘ldim».

Qissa elchga manzur bo‘ldi.<sup>1</sup>

Ko‘rinib turibdiki T.Murodning o‘zi qat’iyatli, mag‘rur inson bo‘lgan. U ko‘zlagan maqsadi yo‘lida barcha qiyinchiliklarga bardosh berib ijod qilgan. Bu bir asari yozilishi haqida Holbuk ushbu «Men» nomli maqolasida T.Murodning boshqa asarlarining yozilish tarixi va sabablari bilan tanishib chiqish mumkin. «Men» ning oxirida T.Murod «Otamdan qolgan dalalar» romanining yozilishi haqida bayon etib shunday deydi:

«Romanni boshlab... paxta nima ekanini bilmasligini anglab qoldim. Oppoq qog‘oz bilan yuzma-yuz bo‘lib, paxta bilan begona ekanimizni bilib qoldim.

Men uchun paxta qaysi bir, qaysi bir dengiz ostida o‘sajak o‘tday bo‘lib tuyuldi.

Men qog‘oz qalam g‘a iladim. Men Surxon dalalarini kishonladim. Ilk ko‘klamdi Oltinsoy tumaniga yo‘l oldim.

---

<sup>1</sup> T. Murod «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. –B. 264-265.

Rais aytmish Aliqunov dam shiyponini makon etdim.

Men bo'lajak Dehqonqul bilan yuzma-yuz bo'ldim.

Bo'lajak Dehqonqul dalalarini ish joyim etdim.

Dehqonlar qanday kiyimda bo'lsa men ham shunday kiyinib oldim.

Dehqonlar o'tirsa-o'ttirdim, dehqonlar tursa-turdim.

Chigit ekish boshlandi.

Men dehqonlar bilan chigit ekdim.

Men.. dehqon bo'lib, chigit ekdim.

Men g'o'za yagonaladim. G'o'za chopiq qildim. G'o'zaga go'ng berdim. G'o'zaga suv taradim. G'o'za chilpidim.

Men dehqonlar bilan paxta terdim.

Men g'o'zklarga suv taray-taray necha-necha tonglarni oqladim.

Men shiyponlarda uxlab qoldim.

O'qariq bo'larida uxlab qoldim. Egatlarda uxlab qoldim.

Men Surxon dalalarida olti oy kezdim. Surxon oftobida olti oy kuydim. Surxon changlarini olti oy yutdim.

-Men o'zbek xalqiga xaykal qo'yaman!

Men ana shunday orzuda dalalar bilan xo'shlashdim.

Nihoyat orzularim oxir-oqibat ushbu roman bo'ldi.<sup>1</sup>

Mana shu ko'chirmadan anglash mumkinki adib bir asar yaratish uchun qancha mashaqqat chekkan, izlangan mehnat qilgan yana shunisi alohida ahamiyatga egaki T.Murod ijodidagi asarlar o'zining tili va yozilish uslubi bilan ham bosh asarlardan keskin farq qiladi.

«Qisman mumtoz adabiyotimizdagi saxs yo'lini, ko'proq xalq dostonlaridagi nasriy ifoda hikoya qilish yo'sinlarini eslatadigan, aslida faqat Tog'ay Murodgagina xos XX asr zamonaviy o'zbek tili yangi o'zbek nasri mahsuli bo'lmish bu xil badiiy matn adabiyotimizda tamomila yangi, noyob

---

<sup>1</sup> T. Murod «Otamdan qolgan dalalar. –T.: 1994. –B. 267-269.

hodisa. Matndagi gaplarning tuzilishi tarzi, ohangi, soʻz va jumalarning takrorlanishi xalq tilining rang-barang tovlanishi, nozik lutf, qochiriqlar, goh xazin kayfiyat goh tabassum uygʻotuvchi ifodalar, birgina jumla, birligida tanbeh orqali butun boylarga tatigulik voqei drama, ruhiy holat-kechinmalarining jonli gavdalantirilishi-bularning barchasi yetuk sheʼriyat, dostonchilik tajribalarini yodga tushiradi»<sup>2</sup>.

Ushbu fikrlarda ham T.Murod ijodining oʻziga xos mahorat mahsuli ekanligi alohida taʼkidlangan. Biz ham adib ijodini kechroq oʻrganish maqsadida oʻz tahlil va talqinlarimizni oʻrtoqlashish uchun T.Murodning «qoʻl qotib» qolmaslik uchun mashq qilgan «mayda-mayda» hikoyalaridan boshlashni maqsadga muvofiq deb bildik.

A.Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti sovrindorii, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Togʻay Murodning hikoyalari ham boshdan-oyoq teran psixologizm asosiga qurilgan boʻlib, ularda odamning ichki ruhiyat doimo koʻzga tashlanib turadi. Yozuvchi oʻz qahramonlarining xarakterldarini ana shu psixologik muhit orqali ochib beradi. Shunday qilib oddiygina hikoyalardan badiiy kashfiyot yaratadi. XX asrning 70- yillarda yozuvchining bir qator hikoyalari chop etildi. Ularning ayrimlari keyinchalik nasirning «Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi» (roman, hikoyalar, maqolalar Toshkent, «Sharq» 2001) kitobiga kiritilgan. «Bobosi bilan nevarasi»(1966), «Kuzning bir kunida» (1967), «Ku-ku-ku..» (1970), «Er xotin» (1970) hikoyalarining toʻrtovi ham muayyan mushtarak xususiyatlarga ega.

Bu mushtaraklik dastavval T.Murodning hikoya syujetini murakkablashtirish va keskin dramatik ziddiyatlardan tiyilishida kuzatiladi. Har bir hikoyada biron-bir ziddiyat, hayotiy lavha yoxud voqea joʻngina tasvirlanadi. Shu tasvir davomida yozuvchi ijtimoiy ahloqiy va estetik muammolarga ahamiyat qaratadi, hayotda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarga

---

<sup>2</sup> Karimov I. va boshqalar «XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi» –T.: 1999. –B. 529.

ahamiyat qaratadi, munosabat bildiradi. Ikkinchidan inson va unga e'tibor, tabiat va inson munosabatlari, go'zallik to'yg'usiga oshuftalik, mehr-muruvvat masalalari pok va samimiy tuyg'ular bilan qalamga olinadi.

T.Murod asar yaratar ekan qahramonlarining o'z dunyosini psixologik dialekti bilan birga beradi. Bularning hammasi T.Murodning mohir yozuvchi bo'lib shakllanganidan darak beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. T.Murod «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» kitobiga har yillarda yozilgan to'rtta hikoyasini kiritganligi haqida aytgan edik. Nega aynan mana shu hikoyalar tanlangan deb o'ylab beixtiyor asarlarning yozilgan yillariga diqqat qilasan kishi. Shunda o'quvchi adibning talabalik davrlaridanoq o'z hikoyalarida haqiqatni aytishga, aytganda ham o'z fikrlarini maromiga etkazib ifoda qilishga harakat qilganligini sezadi.

To'g'ri, Haqiqatdan ham «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romani XX asrdagi o'zbek millati ko'rgan azob uqubatlari, dardlari va qayg'uli voqealarini aniq va ochiq oydin ko'rsata olgan asardir. Shu kitobga kirgan hikoyalar, roman voqealariga adabiy-estetik, siyosiy-mavkuraviy ma'nosiga qarab tartiblashtirilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Bizning fikrimizga o'sha kitobi kiritilgan hikoyalar garchi romandan oldin yozilgan bo'lsa ham romanda aytilmay qolgan ba'zi joylarini to'ldirib turgandek. T.Murod hikoyalariga nazar tashlar ekanmiz unda qahramonlar kayfiyati yaqqol seziladi. Uning hikoyalarida inson shaxsiyatiga diqqat e'tibor kuchligi bilan birga ruhiy tahlillar ancha terandir.

«Kuzning bir kunida» hikoyasida oq ko'ngil mehnatkash, domla Obidovich obrazi berilgan, u hammani birda ko'radi, hammani paxtadek oppoq deb biladi. Demak, o'z talabasining qalbaki bemavrid jarohatlanmaslik Akromjon Rahimjonovga «onasi vafot etgani» haqidagi xabarni qanday etkazishi haqida uzoq qayg'uradi.



Hikoyadagi domla Obidovichga na yoshligi, na tarbiyasi, va na ichki tuyg‘ulari jihatidan o‘xshamaydigan Akromjon Rahimjonov endigina yigirma yoshni qaralagan. Bu yigit sevimli adajonisining erkatoyi, u og‘irning ustidan engilning ostidan yurishga odatlangan. Har bob bilan bo‘lsada ishini bitkazish «yo‘lini qilish»ga odatlanib qolgan. Bu yigit allaqachon qiyofasiz kimsaga aylanib ulgurgan. U domla o‘ylaganchalik sodda va beg‘ubor yigit emas edi. Domla oldida qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib odobli yigit qiyofasida, telefon aloqachi qiz oldida najotga muhtojday, adajonisi bilan suhbatda esa mag‘rur va hukmona qiyofada ko‘rinadi va so‘zlaydi.

Keling uning adasi bilan suhbatini kuzatib ko‘raylik.

«-Ada? Sizmisiz? Man Akromjonman. A? Ha keldi, Ja-a vahima qilib yozibsiz, kasal desayiz ham bo‘livurardi. A? Ha mashina yuboring. Samarqand avtostantsiyasi bor-ku, o‘shatga kelib tursin. Xo‘p xayr, xo‘p-xo‘p...»<sup>3</sup>

Ko‘rib o‘tkanimizdek, dahshatli fojia bu. Dada ham o‘z xotini o‘ldi deyishdan top tortmaydi ham. Bola ham o‘z opasini, o‘ldi»ga chiqarib bemallol o‘z tashvishi bilan ovora. Bu narsalar esa bizda yuz bergan shu davrning ayanchli psixologiyasi edi, mehnatdan, paxtadan qutulsa bo‘ldi «kim qanday o‘ylasa shunday o‘ylasin» degan aqida hikoya yaratilgan 60-yillardayoq shakllanib ulgurgan edi.

Kommunizm quruvchilarning fikri-o‘yi bunday bo‘lganini yozuvga sobiq ittifoq hukmronligi davridayoq ko‘rib, o‘yta oldi. Yozuvchining ushbu to‘plamga mazkur hikoyani kiritishdan asosiy maqsadlaridan biri shu bo‘lsa ajjab emas. Zero Arestotel’ ta’biri bilan aytganda, «Yozuvchilarning bir guruhi odamlarni aslida qanday bo‘lsa, shunday tasvirleydi, boshqa guruhi esa odamlarning qandayo bo‘lishi mumkinligini nazarda tutadi» Bu degani T.Murod ham mazkur fikrlar asosida yondoshib o‘sha davr «ilg‘or

<sup>3</sup> To‘gay Murod «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» -T.: Sharq, 2001. –B.176.

ziyolilar»ining qanday ekanligini va davrga nisbatan esa shu asnoda ketaversa qanday oqibatlariga yuz o'girishi mumkinligi ustidan chiqarilgan xulosadir.

Tog'ay Murod hikoya yaratar ekan, asarlarining sodda, ixcham va mazmundor bo'lishini ta'minlaydi. Ayrim hikoyalarida portret, peyzaj tasvirlari deyarli sezilmaydi ham, bor narsalarni xarakterlar va ruhiy tahlillarga yuklatadi. Uning asarlarining tematikasi ham yangidir. Demak, u yaratgan asarlar badiiyligi va yangi g'oya, yangi bir muommalarni ko'tarishi bilan qimmatlidir. T.Murod tasvirlagan voqealar, xarakterlar qismati bir-biriga mantiqan juda ham mos tushadi.

Adabiyotshunos M.Qo'shjonov «Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar, xarakterlar, yaratar ekan, u o'z fantaziyasining bandasi bo'lib qola olmaydi. Yozuvchi istagidan ustun turadigan uning qalamining yo'nalishini belgilab beradigan ma'lum kuchlar borki, san'atkor ular bilan hisoblashmasdan iloji yo'q. Shulardan biri hayot mantiqidir» degan edi.

Har qanday badiiy asar ham asosan ma'lum bir haqiqatni ruyobga chiqarish uchun yoziladi. Shu bilan birga asar saviyasini oshiradigan ham, tusharidigan ham uning tilidir. Tili ta'sirli bo'lmasa qahramonlar va personajlar ruhiyoti va xarakter mantig'iga mos tushmasi unday asarda obraz ham psixologizm ham yaxshi ochilmaydi. M.Gor'kiy aytganidek, «Til badiiy adabiyotda xarakterlar va manzaralar yaratish quolidir»<sup>4</sup>. Bu narsalar T.Murod ijodida xususan hikoyalarida yaxshi ifodalangan. U nima aytmoqchi bo'lsa, shuni aniq ayta biladi. XX asrning 70- yillarda ham o'z fikrini o'z so'zi bilan oshkor eta oldi.

O'zbek nasrining an'anaviy dasturini davom ettirib, yangi ko'z qarashdagi asarlar yaratish T.Murodning oldiga qo'ygan maqsadi edi. Ularda

---

<sup>4</sup> M.Gorkiy «Literaturno-kriticheskie stati. –M.: 1937. –S. 584.

muallif nozik psixologizmlar orqali mavzuning kengligi, voqealar tor bo‘lgan bilan mazmuni boyligi, hayotga bo‘ysindirilishi, hikoyalarida shaxs muammosi, inson taqdiri, avlod, kelajak qanday bo‘ladi? kabi masalalarni ko‘tarib bera oldi. U o‘zining 60-70 yillarda yaratgan hikoyalarida xuddi shu narsalarni e’tirof etib, inson taqdiri, uning tartishuvlari, xarakter xususiyati orqali shu davrga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qaray oldi va shularni ayta bildi.

Bunda faylasuf Aristotel «Poetika»sida fan bilan san’at (adabiyot) o‘rtasida mushtaraklik va tafovutlar xususida shunday deb yozgan «Ijodkorning vazifasi haqiqatan bo‘lib o‘tgan narsalar haqida emas, balki chindan ham yoki zaruriyat tufayli yuz berishi lozim bo‘lgan narsalar to‘g‘risida hikoya qilishdir. Tarixchi bilan shoirning farqi, ularning biri she’rda, ikkinchisi prozada gapirganida emas. Shoir bilan tarixchining farqi shundaki, ulardan biri haqiqatan bo‘lib o‘tgan narsalar haqida, ikkinchisi yuz berishi mumkin bo‘lgan narsalar haqida gapiradi. Adabiyot umumiy narsalar haqida, tarix esa xususiy narsalar haqida hikoya qiladi».<sup>5</sup>

Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, alohida ijodkor asarlarida voqealikning qaysi asosiy qatlami va muhim xususiyatlari qamrab olinganligi hamda ijodiy individualligini o‘rganish adabiy jarayonning umumiy mazmunini ham aks ettirishdir. Chunki xususiy masalalar vositasida umumiy hodisalarning ham mohiyati ochiladi. Ayrim so‘z san’atkorlari tajribasi millatning o‘zini estetik jihatdan namoyon qilishdek, taraqqiyotning har bir bosqichida yangilanib turadigan ehtiyoji bilan chambar-chars bog‘liqdir. T. Murod hikoyalarini kuzatar ekanmiz, eng muhim xususiyatlardan biri insonning ichki dunyosiga, axloqiy va axloqiy-manshiy muammolarga bo‘lgan qiziqish ancha kuchayganligi ijodiy izlanishlarida milliy o‘ziga xoslik saqlanganligini ko‘ramiz.

---

<sup>5</sup> Aristotel. Poetika. Ob iskusstve poezii. – M.: 1957/ -C. 67.

«Ku-ku-ku!» hikoyasidagi direktor o‘rinbosari ochiqko‘ngil, insonparvar, tabiat bilan hamnafas yashaydigan inson. Ushbu hikoyada mehr-muruvvat va shavqatsizlik to‘qnashadi. Direktor dam olishga ketganida o‘rinbosar bosh rahbar vazifasini bajaradi. U ko‘pgina xayrli ishlarni amalga oshiradi. Qorovul gapga qushlarga uya yasatib qurib qo‘yadi. Musicha bolalarini xonasiga olib kelib parvarishlaydi. Buning uchun esa direktor ishga kelgandan keyin baloga qoladi. Musicha bolalari axlatlar tashlanadigan qutiga uloqtiriladi.

Yozuvchi asarda direktor va o‘rinbosar muloqotini shunday tasvirlagan

«-Ja, yangilik ko‘pku. Bizning aqlimiz etmaydi-da shularga. Buni qaranga!

Kutilmaganda direktor ko‘zlarining oqi ko‘payib, qarachiqlari qayoqqadir yo‘qolganday bo‘ldi.

-Bu madaniyat bog‘i! Bu erda parrandalar emas, xalq hordiq chiqarishi kerak, tavba, hamma daraxtlarga uya qo‘ndirib chiqibdi-ya. Hammayoq musicha tezagi. Nima, bu zooparkmi?

-O‘rtoq direktor, qushlar ham xalq.

-Siz rahbar yo kaptarboz oktyabryatmi?

Marhamat yozing ariza. Ahli kirib qopar bolaligini tashlar deb shuncha sabr qildim»<sup>6</sup>.

Asardan keltirilgan parchadan ko‘rinib turibdiki muallif bu erda direktor xarakter xususida alohida urg‘u berib ifoda qilgan. Ya’ni u faqat rahbarlikni biladi, amaldorlikni biladi, ishlash yangilik yaratish boshqalarni o‘ylashni emas. Haqiqiy fidoyi insonparvar, kishi esa o‘rinbosar bo‘lib o‘tiribdi. Mana shu o‘y xayollar yozuvchining asosiy g‘oyasidir. Bu muallif demak, jamiyatga fidoyi, mehnatsevar chin ma’nodagi etuk inson kerak emas ekanda degan savol bilan murojat qilayotgandek.

---

<sup>6</sup> O‘sha kitob «Ku-ku-ku...» hikoyasi. –B. 180.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, T.Murod bu hikoyasida ortiqcha tasvir voqealariga berilmaydi. Direktorning kim va qanday qilib bu lavozimga erishdi, bu haqida hech qanday gap yo'q, lekin asarni o'qib bu xususida aniq xulosaga kelish mumkin. Shu o'rinda M.Qo'shjonovning yana bir fikrlariga murojat qilsak. «Har bir voqea ham badiiy asarga kirishi mumkin. Biroq voqea faqat voqea sifatida badiiy syujetga asos bo'la olmaydi. Agar voqealarning quruq o'zidan badiiy asar chiqaveradigan bo'lsa hayotda uchrab turadigan mayda-chuyda janjallar ham asar deb hisoblanaveradi»<sup>7</sup>.

Yuqorida biz to'xtalgan ikkala hikoyada yozuvchi kontrast tasvir usulidan foydalangan bo'lib, ularda ijtimoiy-axloqiy muammolar o'rta qo'yiladi, hamda ta'lim-tarbiyadagi bo'shliqning katta ijtimoiy fojialariga sabab bo'lishi mumkinligidan kitobxon ogoh etiladi.

Islom Karimov kelajak avlod tarbiyasi haqida gapirib shunday degan edi:

«Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg'urish sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Bu muqaddas zamanda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining ba'tu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi»<sup>8</sup>.

Sog'lom avlod mavzusi adabiyotimizda hamisha etakchi mavzulardan biri bo'lib kelgan. Buni adabiyotimizning o'tgan asrning 80- yillar qissachiligi ham tasdiqlaydi. Bu yillarda M.Muhammad Do'st, Erkin A'zamov, Anvar Obidjon, Tog'ay Murod, X.Sultonov kabi yozuvchilarimiz barakali ijod qildilar. Bular orasida taniqli yozuvchi Tog'ay Murod

---

<sup>7</sup> Qo'shjonov «Hayot va nafasat» -T.: 1970.-B. 25.

qissalarida jismonan baquvvat ma'naviy etuk qahramonlar mavzusi alohida o'rin tutadi. Yozuvchining Yulduzlar mangu yonadi», «Ot kishnagan oqshom» qissalarida chavondozi va polvonlarning oriyat yo'lidagi kurashlari o'zining ta'sirchan ifodasini topgan.

Yozuvchi «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida Surxon vohasidagi milliy an'analar g'oyat ehtiros bilan qalamga olingan. Yozuvchi polvonlar hayotini juda yaxshi biladi, ularga guruh muhabbat bilan qaraydi. Polvonlarning olishishlari haqidagi epizodlarda yolg'on gapirmaydi. Mana ulg'ayib kelayotgan polvonchalar haqida yozgan taasurotlari:

«Bolalar davrini ikki aylandi, qo'l berib ko'rishdi. Shukur polvon chopani o'ngirlarini qayirib belbog'iga qistirdi. Enkayib o'ng qo'lini oldinga sermab bora bordi.

Ermamat polvon ishtonini yuqoriga bir ko'tarib qo'ydi. Uyam qulogini sermab kela berdi.

-Ha quloqchigindan, polvonchalar-dedi davra<sup>9</sup>. Bu satrlarda o'sib kelayotgan polvonlarga muallifning o'zgaga muhabbati mujassamlashgan. Shu o'rinda u Surxon vohasida kurashga qanchalik e'tibor berilganini ifodalaydi. Yozuvchi kurashni tasvirlar ekan uni tadrijiy davom ettiradi:

«Zo'rdan zo'r chiqdi. Olishish kattalashdi. Gal maktab yoshi bolalarga etdi. Undan o'smirlarga etdi.

Bir polvon yiqilsa, oraga oshnosi yo og'aynisi davraga chiqdi. Qani tortdi.

Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi»<sup>10</sup>.

Kurash yozuvchi e'tirof etganidek, bu yurtlarda or-nomus uchun kurashga aylangan qissada Bo'ri polvonning hayoti kechmishi bilan bog'liq voqealar o'zining go'zal tasvirini topgan. Shu bois ham yozuvchi millat

<sup>8</sup> Karimov I. Barkamol avlod orzusi. -T.: 1999, -B. 8.

<sup>9</sup> To'gay Murod Yulduzlar mangu yonadi, Ot kishnagan oqshom. -T.: 1994. -B. 14.

<sup>10</sup> O'sha asar, 15-bet.

qayg‘ularini, orzularini va pokiza tuyg‘ularini Bo‘ri polvon orqali ifoda etadi. Bu tuyg‘ular zamirida sog‘lom avlod uchun kurash taqdiri yotadi.

«Biz polvonning maktabida o‘qimadik. Polvonlik bizga otameros, pushtdan-pushtga, qondan-qonga o‘tib kelayapti.

Polvonning ko‘zga ko‘rinmas, til bilan to‘shintirib bo‘lmas shunday sirlari borki, buni faqat tomirida polvonlik qoni borlarga biladi. Biz bilamiz:

Bu sirlar hech bir kitobda yo‘q!

Mana, mening o‘zim. Surxon vohasida mendan yiqilmagan yag‘rinimdan oshib ketdi! Xalq nimasi bilan xalq. O‘zining urf-odatlarini bilan! Ota bobosidan qolgan milliy an‘analari bilan xalq!»<sup>11</sup>.

Bu satrlarda millat qayg‘usi bilan yashayotgan, sog‘lom avlod dardi deya kurashayotgan haqiqiy polvonning iftixori o‘z ifodasini topgan. Haqiqatan ham, Bo‘ri polvon ta‘rif berganidek «Xalq urf-odatlarini bilan xalqdir!» Shu o‘rinda 1999 yil oktyabr oyida Surxandaryoda bo‘lib o‘tgan «Alpomish» dostonining ming yillik tantanalari ana shunday ulug‘ an‘analarning, tantanalarning yorqin namoyishi bo‘ldi.

Ammo yozuvchining iztiroblari ham yo‘q emas, u mana shu ulug‘ an‘analar yurti millatning sha‘nini ko‘targan bir paytda kurashga bo‘lgan e‘tibor o‘z zamonida so‘nib qolganini yashirmaydi.

Buni yozuvchi Bo‘ri polvon siymosida ko‘rsatadi. Bo‘ri polvonning chekkan afsus-nadomatlarida o‘sha davr kishilarining fojialari o‘z aksini topgan. Milliy qadriyatlar toptalgan, odamlar orasidagi insof diyonat ko‘tarilgan bir paytda yozuvchi Bo‘ri polvon obrazi orqali davr jarohatlarini ko‘rsatib berdi. Bu yozuvchining iztiroblari. U almashayotgan avlodlar qalbida jo‘shqin va jasorat uchqunlari so‘nib borayotganidan istirob chekadi.

---

<sup>11</sup> O‘sha asar, 43-bet.

Bo‘ri polvon-haqiqiy millat farzandi. Shu bois ham o‘zi to‘g‘ilib o‘sgan qishloq misolida dunyoga dovrug‘i ketgan polvonlar etishib chiqishini istaydi. Chunki Bo‘ri polvonning ota-bobolari el-sha‘nini elkasida ko‘targan polvonlar bo‘lib o‘shigan. Polvonlik faqat jismoniy baquvvat kishilarnigina ishora emas, polvonlik qavm qarindoshlari, eldoshlari qolaversa, tug‘ilgan yurtining obro‘-e‘tibori uchun ham kurashishga qodir kishilardir. Polvonlik Bo‘ri polvonning qon-qoniga singib ketgan, bu hunar bu polvonning qalbida yashaydi

Bo‘ri polvon beshikdagi chaqaloqdan tortib nuroniy cholgacha barcha-barchasi ismiga polvon so‘zini qo‘shib aytdi. Davrada kurashganmi yo‘qmi, baribir aytaverdi.

Aytganda-da, og‘zini to‘ldirib aytdi, g‘urur bilan aytdi!

Bu satrlardan ko‘rinadiki, Bo‘ri polvon boshida yotgan chaqaloqlarga ham mehr bilan qaraydi. Ertangi kunning polvonlarini shu chaqaloqlar timsolida ko‘radi.

Bo‘ri polvonning o‘g‘li Tilovberdi ham ota izidan borib, elchi mashhur polvon bo‘lib etishadi.

Ushbu qissa haqida tanqidiy adib Said Ahmad shunday yozadi:

«Men Tog‘ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida Bo‘ri polvon, Tilovberdi polvon, Atil polvonlarning kurashlarini zavq-shavq bilan tomosha qildim. Surxon polvonlarining halolliklari, mard, tantiliklarini ko‘rib, g‘ururlanib ketdim. «Ana o‘zbek polvonlari, ana deya g‘ururlandim»<sup>12</sup>.

Haqiqatan ham, yozuvchining ushbu qissasida zurriyat va yurt sha‘ni uchun kurashayotgan polvonlarning yorqin siymolarini ko‘ramiz. Ular ham bir paytlar o‘zbek kurashining jahon miqyosida tanilishini chin dildan istaganlar.

---

<sup>12</sup> S.Ahmad To‘gay Murodning qo‘shiqlari // Ot kishnagan oqshom. –T.: 1994. –B. 5.



Mana shu yillardagi polvonlarning armonlari:

«Kitoblik Sayfiddin Hodiev bor-ku, yaqinda o'sha bilan o'tirib qoldim. Trenerlar jahon qilib etishtirdim deb suyunadi, bilmaydilarki, men bolaligimda to'ylarda olishib yurgan tayyor polvon edim deydi.

-Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo'ldi-ya

-Hamda, Mo'g'ilistonda qanday qilib jahon chempioni bo'lganini gapirib berdi. Olishish muddati tugashiga bir necha sekund qolganida yonboshga olib urib ochko oldim deydi. Bunday hunar boshqa biror olishishdi yo'q faqat bizning olishimizda bor, deydi.

-Ota bobomizning hunarini mahkam ushlasak, jahonning eng zo'r polvoni biz bo'lamizku-ya, nima dedingiz, Sho'ro bova?

-Ko'p noshukurlik qila bermanglar haliyam zo'rmiz. Ana, jahon chempionlari Sayfuddin Qurbonov»<sup>13</sup>.

El yurt sharafini himoya qilgan polvonlarimiz yoshlik chog'laridan boshlab davrlarda kurash tushganlar.

Ota-bobolarimizning o'chmas ruhi va hunariga e'tiqod qo'ygan kurashchilarimiz og'ir damlarda ham qisqa fursatdan g'alabaga erishganlar. Ajdodlarimizning orzulari bugun ruyobga chiqdi. Bugun o'zbek kurashini jahon tanidi. Bu so'z dunyo bo'ylab yangramoqda.

Tog'ay Murodning ushbu qissasi o'z qahramoni Bo'ri polvon tilidan quyidagi satrlar bilan yakunlanadi:

«Har bandaning ko'kda o'z yulduzi bo'ladi oshna. Shu yulduzning yongani-shu bandaning yonganidir. Shu yulduzning so'ngani shu odamning so'nganidir.

-Yo'q, oshna yo'q! Yulduzim hali yonadi davrlarim hali davom etadi.

-Nevaralarim davrlarda «Yo, bobomning piri! Deya hayqirib ayqirib olisha beradi! Yulduzim mangu yonadi»<sup>14</sup>

---

<sup>13</sup> To'gay Murod «Yulduzlar mangu yonadi» -T.: 1994.

Ushbu satrlarni o'qiganda yozuvchining o'z davridan qanchalik ilgarilaganligini ko'ramiz. Qissa nashr etilganligi hisobga olsak, Vatan osmonida Mustaqillik yulduzi porlagani va kurash bo'yicha jahon chempionatlari yurtimizda o'tganligi davrlarning davom etganligi emasmi?

Darhaqiqat, Mustaqillik zavol topmas milliy an'anaviy qadriyatlarimizning tantanasidir.

Bugun Tog'ay Murod qalamiga olgan polvonlarning yangi bir avlodi etishib chiqdi. Ular ota-bobolari an'analarini davom ettirib, o'zbek kurashi shuhratini olis olislarga tartmoqdalar.

Tog'ay Murod ijodi orqali adabiyotimizga ko'pgina qahramonlar kirib keldi. Xarakteri, voqelikka munosabatlari bilan ajralib turadigan bu qahramonlar dunyoga yangicha ko'z qarash bilan qarayotgan zamondoshlarimizdir.

«Ot kishnagan oqshom» qissasida halollik va mardlik tarannum etuvchi asarlardan biri bo'ldi. Qissa qahramoni Ziyodulla kal elning mashhur chavondozi. Chavondozi orasida ham o'zining halolligi bilan tanilgan. U g'irromlik ro'y bersa to'g'risini aytadi. To'g'rilik Ziyodulla kalning qonida bor. Ziyodulla bir to'yda o'yining chilvar solgan chavondozlarni ko'rib nafratlanadi!

«Birodorlar, chavondozi nimaga etagini qoqib ketayapti? Adolatga! Nimaga tupurib ketayapti? Adolatga! Kimdan arozalab ketayapti? Adolatdan! Bir to'yda nomard, iymonsizga achchiq qilib, adolatni o'tga tashlab ketayapti!».

Lekin Ziyodulla adolat osmonda deguvchilarga qarata shunday deydi:

«Yo'q birodorlar adolat erda! Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorashib yotibdi! Adolatni kam buldayin xor qilayapti? Biz o'zimiz»<sup>15</sup>.

---

<sup>14</sup> O'sha asar, 100-bet.

<sup>15</sup> To'gay Murod. Ot kishnagan oqshom. -T.: 1994. -B. 126.

Qissada chavandoz va hamqishloqlarining adolat yo‘lidagi kurashlari o‘zining g‘oyat ishonarli tasvirini topgan. Masalan, bir yili qishloqqa otlarni go‘sh-tga topshirish to‘g‘risida buyruq keladi. Tabiiyki buyruq qishloq ahlini sergak torttiradi. Lekin hech kim yurak yutib buyruqqa qarshi borolmaydi. Shunda Ziyodullaga o‘xshagan chavondo-zlar yani adolatni izlashga to‘shadilar. Bunday noxush xabarni eshitgan Ziyodulla chavandoz shunday deydi: «Kuntug‘mish»ni go‘sh-tga topshirib bo‘ladimi? «Alpomish»ni go‘sh-t qilib bo‘ladimi?»<sup>16</sup>.

Albatta Ziyodulla chavandoz aytganidek, adolat haqida ko‘p gapirish mumkin. Ammo bu yo‘lda kurashishi esa har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Ziyodulla ham bu yo‘ldan qaytadiganlardan emas. O‘z e‘tiqodida sobit inson. Chavandoz sodda va samimiy, ayni paytda, cho‘rtkesar inson. Bu fazilatlari unga ko‘p tashvishlar keltiradi.

«Ot kishnagan oqshom» muallifining ijodida folklorda ko‘p uchraydigan qahramon va obrazlarga duch kelamiz. Ziyodulla kal mana shunday qahramonlardan biri. Kal timsoli xalq og‘zaki ijodidagi ko‘pgina janrlar latifa, doston, ertaklarda uchraydi. Ertaklardagi kal go‘zal malikaga

oshiq bo‘ladi va har qanday to‘siqni engib o‘tab uylanadi. Ziyodulla kalning qishloqning eng suluv qizi Momosuluvga uylanishi ham xuddi shu an’anani eslatadi.

Folklorda qahramonning suyuklisini ko‘pincha tushida, ko‘zguda, uzuk ko‘zida yoki bir holatda ko‘rib qolib unga oshiq bo‘lib qolish holatlari uchraydi. Bu jarayon Ziyodulla kalning ham tushida ro‘y beradi.

Bu obrazdan folklor qahromonlariga xos favqulodda holatlarni topish mumkin. Ammo yana bir obraz borki biz uning tahlili misolida T.Murodning xalq og‘zaki ijodi namunalariga ko‘p bor tayanganligiga yana bir bor iqrор bo‘lamiz bu-ot obrazi.

---

<sup>16</sup> O‘sha asar, 138-bet.

Folklorda ot tasvirlanayotganda ko‘pincha uning zoti afzalligi ta’kidlab o‘tiladi. Masalan:

Asli chambilning otisan

Asli turkman xonazoti

«Ot kishnagan oqshom»da ham shu an’anani uchratish mumkin. «Birodorlar buning Surxonda mana bunday gap bor: ot olsang Oboqlidan ol, ayol olsang Irg‘olidan ol.

Buning mag‘zi shuki ot deganlari-dev! Ot bepoyonlikka deydi. Ot masofi nimaligini bilmaydi, xudud nimaligini bilmaydi. Ot qahraton qishda dasht-biyotonlarda chopib o‘sadi. Ana shunda dirkillagan ot bo‘ladi. Uchqur keladi! Bedav bo‘ladi!..

Birodarlar, bo‘z ot qanday bo‘ladi? Surpday oppoq bo‘ladi! Bordiyu ajdodida bo‘lsa to‘qqizga to‘lganda tarlop bo‘ladi. Tarlop xol-xol ot! Tarlop-otlar sarasi.

Birodarlar otning yuzdan biri yaxshi bo‘ladi. Tarlop otning yuzdan biri yomon bo‘ladi.

Birodorlar ot tanimasang tarlop ol!

Dostonlarda otlarning bahosi sinchilar tilidan ta’riflanadi. Masalan, «Alpomish» dostonida Ko‘kaldoshning sinchisi Boychiborni qarichlab ko‘rib bahasini aytadi, ta’rifini keltiradi. Ziyodulla kalning oti ko‘pkariga ro‘yxushlik bermay turganida uni sinchiga ko‘rsatsa, u darhol otni o‘ziga sotishini so‘rab qoladi. Ko‘pkarida otning faqat g‘olib kelayotganini kuzata turib: «Endi menga qarang el chavandozi, otga dam bering, bo‘lmasa ko‘ziktirib qo‘yasiz deydi.

Tog‘ay Murodning ot obrazini yaratishda folklordan unumli foydalanganligi qahramon tilidan aytilgan: «Tarlop ot emas, Jumantbulbul kuylagan «Kuntug‘mish» Fozil Yo‘ldosh kuylagan «Alpomish» so‘zlaridan ham anglashilib turibdi.

Adibning Qoplon va Oymoma kati obrazlarida ham folklor qahramonlari, insonlar Alpomish va Barchinoy kabilar tasviriga monandlik mavjud. Buni birgina Oymomi tasviri berilgan jumlar orqali ham bilib olishimiz mumkin:

«Suluv yuzlarini oppoq desak, bizning haqqimiz ketadi. Qorachadan kelgan desak qizning haqqi ketadi.

Bug‘doyrang bo‘ldi.

Barchin yuzli bo‘ldi.

Shu bilan birga yozuvchining uslubi ham xalq ijodi kabi ravon.

Shunday qilib T.Murod folklor namunalaridan ijodiy foydalanish orqali obrazlariga chinakam milliy xususiyatlarini, koloritni bera olganligini ko‘ramiz.

Har bir jamiyat, har bir davrning o‘ziga xos yangi qahramonlari bo‘ladi. Hayot konkret tarixiy sharoit taqozosi bilan o‘z zamonasi ilg‘or kishisining muayyan tiplarini kurash maydoniga olib chiqadi. Shu boisdan ham ularning intilishida, kurashida va qismatida davrning butun murakkabligi aks etadi

## II BOB

### MA'NAViy-AXLOQiy MUAMMOLAR TALQINI

Milliy istiqlol davri yozuvchilarga ijod erkini in'om etgani bois istiqlol ta'siri natijasida mudrab yotgan ong uyg'onayotganday va bu uyg'onish ta'sirida shakllanayotgan tafakkur jamiyatning tarixiy-badiiy estetik komponenti vazifasini bajarar ekan, romanchiligimizda an'anaviy romanlar qatorida noan'naviy-romanlarning yuzaga kelishini adabiy zaruriyat deb e'tirof etmoq kerak. Milliy istiqlol davri romanchiligimizda ro'y berayotgan badiiy evrilishlar, uslubiy izlanishlar yagona maqsad badiiy mukammal o'zbek romanini yaratish maqsadida olib borilayotgan ijobiy holdir.

Odatda har qanday badiiy asar xalq uchun yoziladi va xalq qabul qilsagina mangulikka daxldor bo'lib qoladi. Asarning uzoq umr ko'rishi uchun, avvalo, unda har qanday davrda ham dolzarbligini yo'qotmaydigan, inson ko'nglini larzaga soladigan muammo bo'lishi shart muamma qo'ya bilish va uni hal etish asarning saviyasi qay darajada ekanligini belgilovchi mezondir.

Jamiyatimizda kechayotgan yangilanish jarayonini badiiy tadqiq etish so'nggi yillar adabiyoti va san'atining asosiy mavzui hamda bosh muammosiga aylangani sir emas. Shuning uchun ham ko'p yozuvchilarimiz o'z asarlarida insonning o'zligini anglash, o'zini kashf etish, e'tiqod va inoklilik, nafs va yovuzlikka qarshi kurasha bilish qobiliyatini ko'rsatishni asosiy mavzu qilib olyaptilar.

Iste'dodli adiblarimiz, xususan, Tog'ay Murod bu, borada o'ziga xos badiiy kashfiyotlar yaratdi. O'z asarlarida turli xil ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni ko'tarib, bu narsalarni ko'proq o'z qahramonlarining ruhiy kechinmalari orqali ham ifoda etdi. T.Murod o'zbek adabiyotining navqiron avlodiga mansub. U o'z ijodining boshlang'ich davrlaridanoq

o'quvchilarning diqqatini jalb qiluvchi asarlar yaratdi. Dastlab kichik-kichik hikoyalar, qissalar va hammaga ma'lum bo'lgan romanlari bilan o'zbek adabiyotini bir pog'ana yuqori ko'tardi.

Bizning Tog'ay Murod ijodini boshidan kuzatib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, adib ijodining ilk bosqichidagi hikoyalaridagi fikrlar embiron sifatida ko'rinib, keyinchalik katta janr qissa va romanlari uchun asos bo'lgan.

Ma'lumki, 90-yillar mustaqillik davri romanchiligi yangi-yangi muammolarni keltirib chiqardi. Tarix, falsafa va roman jiddiy muammo bo'lib qoldi. Gap shundaki sho'ro davrida xalq tarixi deyarli oshkor etilmadi. Milliy tariximiz boy va o'ziga xosligi hech kimga sir emas. Lekin, haqiqiy san'at asarlari sandiqlarga tiqib tashlandi. Tarixiy roman ham tarix, ham badiiylik funksiyasini o'tay boshladi. Buning ham mustad ham manfiy tomoni bor. «O'tgan kunlar», «Mehrobdon chayon», «Navoiy» singari romanlarda tarixiy asos ko'zga tashlanib turadi. O'zbek romanchiligi asoschilari boshlab bergan bu an'ana hozir ham davom ettirilayapti.

G'oyaviy kikishiq betakror qissalari bilan 80-yillar o'zbek nasriga katta hissa qo'shgan T.Murod o'z ijodida romanga xos bo'lgan tafakkurni shakllantirdi va o'ziga xos uslubda «Otamdan qolgan dalalar» romanini yaratdi.

Bo'ri polvon, Ziyodulla chavandoz, Qoplon bobo, Oymomo singari ko'p qirrali go'zal obrazlarni yaratib qalami charxlangan Tog'ay Murod «Otamdan qolgan dalalar» romanida o'zbek dehqoning tipik obrazini yaratdi. O'zbek millatining taqdiri, o'tmishi va kelajagi Dehqonqul obrazi misolida badiiy jonlantirilgan bo'lib talqinda sodda, baxshiyona uslubning qo'llanilishi romandagi obrazlilikni oshiradi va xalq tilining rango-rang nozik qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tog‘ay Murod avvalgi qissalarida davlat olib borgan mavkuraviy siyosatning ayrim salbiy oqibatlari, turg‘unlik davrida avj olgan buzuqlik va munofiqlikni qalamga olgan bo‘lsa, «Otamdan qolgan dalalar» romanida sobiq sho‘rolar tuzumi tomonidan olib borilgan mustamlanachilik siyosatining illatlari milliy ozodlik kurashining charokandalikka uchrash sabablari, paxta yakka hokimligining oqibatlari, millatning qatag‘an qilinishini o‘zbek xalqi taqdiri misolida ochib beradi.

«Otamdan qolgan dalalar» asari zamonaviy romanga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, yangi o‘zbek romani mezonlarini ham birmuncha oydinlashtirdi.

Tog‘ay Murod qahramonlari zaminni zilol suvlarni jannatmakon bog‘rog‘larni yaratgan egamning tuhfasini deb suyub ardoqlagan, qadrlagan oddiy odamlar bo‘lib, ular har bir qarich erga mehrini beradi, bolasiday avaylab asraydi. Padari buzurukvoriday, volidai muxtaramasiday e‘zozlaydi. Romanda tasvirlangan Jamoliddin ketmon ham barcha o‘zbeklar qatori ana shunday xususiyatlarga ega. Nazarimizda yozuvchi ana shu erni, osmonni, suvni, oddiy odamlarni ham suyib, ham kuyib tilga oladi. Millat paranandaligiga sabab bo‘luvchi omillarni mantiqan to‘g‘ri ko‘rsatadi. «Ayrilganni ayiq er» degich xalqimizga suyanmagan jonu amirlar, oqposhshaga qarshi kurashda jiplashmay, o‘zaro nizolarga berilishadi va 130 yillik mustamlani tamg‘asini millat taqdiriga bostirishadi.

Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida bir o‘zbek dehqon sulolasining uch valili-bobo, ota va o‘g‘il taqdiri timsolida o‘zbek xalqining istibdod ostida kechgan umri badiiy talqin etiladi. Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlaridagi umumiylik shundaki, ular shu ona-erni sevishadi, uni bo‘lanchi mehr bilan e‘zozlashadi. Olloh bergan rizqni shu zaminda topishadi.



Roman markazida Dehqonqul obrazi turadi, asar voqealari hayoti, taqdir-qismati, ruhiy dunyosi, ona-er, kindik qoni to‘kilgan muqaddas to‘proq bilan mustahkam bog‘liq, o‘zbekning ramzi degulik mehnatkash, zahmatkash inson-bosh qahramon Dehqonqul tilidan so‘zlab beradi. Dehqonqul hikoyasini o‘z sarguzashtlaridan emas, balki ancha naridan-bobosi Jamoliddin, otasi Surxoni Aqrab tarixidan boshlaydi. Chunki Kabo va oti tarixini eslamay va so‘zlamay turib Dehqonqul qismati, xarakteri ma’nosini anglash, anglatish qiyin.

Jamoliddin ketmonning nazarida shu tuproq non kabi aziz, go‘dak singari beg‘ubor, chashma suvidek toza. U «kalima qaytarib-qaytarib, xudoni yodlab-yodlab, xudoga shukrona aytib-aytib ketmon chopadi? Uni shu tuproqqa bog‘lagan narsalar mehr ona-zaminga bo‘lgan e’tiqod. Dalasining bir yashnagani-uning bir yashnamagani. U shu dalasi-yu, mehnati orqali afsonaga aylandi: «Jamoliddinning ketmoni dalasiday».

Jamoliddin hosaldor erlariga, jannatmakon bog‘-rog‘lariga yurtining turfa xil ma’danu boyliklariga ko‘z tikib kelgan istilochilardan nafratlanadi. Ularning harom-xarish ishlaridan hazar qiladi. Ularning qadomi etgan erdan uzoqroq yurishga harakat qiladi. Istilochilarga qarshi ko‘ksida isyon tug‘iladi. Ularga bo‘lgan nafrat-isyon ruhida o‘g‘li Aqrobni o‘stiradi. Ona zaminni e’zozlashu halol mehnat qilish, farzandini yurtparvar elsevar, g‘animlarga nisbatan shafqatsiz qilib o‘stirish oddiy dehqon Jamoliddin ketmonning hayot mazmuniga aylanadi. Romanda tasvirlanishicha, Jamoliddinning butun hayoti o‘g‘lining ko‘z o‘ngida kechadi, u o‘g‘li uchun ibratga aylanadi. Demak, Jamoliddin emin-erkin bo‘lmagan o‘z hayotida qisman bo‘lsada niyatiga etadi. O‘g‘li Aqrob mehnatkash, elsevar, yurtparvar yigit bo‘lib voyaga etadi.

O‘zbek dehqoni sulolasining ikkinchi vakili Aqrob tabiatan otasi Jamoliddinga juda yaqin. U ham ona-Zaminni suyib ardoqlaydi, dalasini mehr bilan parvarish qiladi. Taqdir Jamoliddinning peshonasiga chor Rossiya

istilosini bitgan bo'lsa, Aqrab o'zlarini endi «qizillar» deb ataguchi o'sha istilochilarning ikkinchi bir avlodi bilan yuzma-yuz bo'ldi. Qizil istilochilar oddiy xalqqa «hukumat, erlar sizniki, butun boylik sizniki, hamma teng huquqli, xalq o'z taqdirini o'zi belgilaydi» deb yolg'on-yashiq va'dalar berib, xalqning ko'pchilik qismini o'zlarining yo'llariga yurgizishga muvaffaq bo'lishadi. Ammo Aqrab singari imoni but, e'tiqodli o'zbek yigitlari g'anim niyatini zukkolik bilan anglyadilar. Ulardagi ichki bir tuyg'u qizillar maqsadining asl mohiyatini anglashga yordam qiladi:

«-Dehqonqul. Qizil yomonda, qizil yomon boisi, qizil rang-qon rang, qon yomon, yomon.

-Dehqonqul qon rangdan yorug'lik tilama qon rangdan ro'shnolik tilama. Qon rangdan panoq tilama. Qon rang-jallod rang».

Yuqorida keltirilgan lavhadan kurinib turibdiki, rang timsolini badiiy talqin qilishda, Tog'ay Murod realist yozuvchi. M.Bulgakov uslubiga juda yaqin turadi.

Aqrab-xalqning milliy ozodlik kurashida qatnashib «bosmachi» nomini olib, el-yurt ozodligi, millat erki uchun shahid ketgan vatanparvar o'zbek yigitlarining tipik obrazidir.

O'zbek dehqoni sulolasining uchinchi vakili Dehqonqul taqdiri, uning oilasi, hamkasblari, hamqishloqlari timsolida istibdod tufayli xalq boshiga tushgan fojialar yozuvchi tomonidan kuyunchanlik bilan badiiy talqin qilinadi. Bobosi Jamoliddin dalasini sevardi uni avaylab asrardi, e'zozlardi, u butun umrini dalasiga bag'ishladi, boshiga tushgan barcha qiyinchiliklarga bardosh berdi. Negaki, uning ko'ksida shu erga, dalasiga bag'ishladi, uning ko'ksida ruh bor edi, dalasiday cheksiz, poyonsiz erki bor edi.

Otasi Aqrab ham dalani sevardi, u qadagan cho'p nihol bo'lardi. Chunki uning ko'ksida shu erga, dalalarga nisbatan ulkan mehr bor edi. Millat taqdiri

hal bo‘ladigan kunlarda ana shu his Vatan uchun, el-yurt uchun kurash tuyg‘usiga aylandi.

Dehqonqulga ham ona-erga, dalasiga, eliga mehr-muhabbat, e‘tiqod avlodmeros. U ham butun umrini dalalariga bag‘ishlaydi. Dalalar nafaqat hayotining mazmuniga balkim uning fojiasiga ham aylanadi.

Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlari orasida juda katta tafovut mavjud. Bu ular yashagan davr va zamon ta‘siridir. Uchala obraz timsolida o‘zbek xalqining yaqin o‘tmish tarixi yaratiladi.

Dehqonqul dalam deb yonadi, kuyadi, pishadi, ter to‘kadi, zahmat chekadi. Lekin yillar davomida dalasining qumga aylanganini sezmaydi. Negaki mustamlakachilik siyosati yuqoridan va chetdan turib shu qadar ustamonlik bilan olib borilar ediki, qarsanlaru nishonlar, va‘dalaru unvonlarga uchgan xalq «buyuk g‘oyalar» yo‘lida tinmay mehnat qilardi.

Dehqonqul oilasining turmush tarzi misolida asosiy o‘zbek oilalari bo‘lmish qishloq aholisining juda past «o‘lmasa o‘tar» ku (hayot) tarzi namoyon bo‘ladi. O‘zi qancha og‘ir mehnat ostida ezilmasin, kimyoviy darilardan zaharlanmasin, bir umr kamchilik, etishmovchilik ko‘rmasin, jamiyatda huquqsizlik, tengsizlik sezmasin, u o‘z hayotidan nolimaydi, shu «it yotishmirza turish» turmushga ko‘nib yashaydi. U qishloqdagi o‘ziga o‘xshagan odamlar orasida kam ham emas, ortiq ham emas. Aksariyat aholi ana shunday hayot kechiradi. Lekin hech kim «tangdan shomgacha tinimsiz ishlab nega yomon yashayapmiz» deb o‘ylamaydi. Negaki, «mustamlakachilik faqat mamlakatni g‘orat qilmaydi, undan ham yomonrog‘i odamlarni, xalqni ruhan g‘orat qiladi, shunday qiladiki, qul hayotini kechirayotgan, insonga nomunosib hayot kechirayotgan odamda shu hayotga qarshi norozilik, isyon ruhi butkul so‘nadi»<sup>17</sup>.

---

<sup>17</sup> A.Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. -T.: 1980. -B. 116.

Mustamlakachilarning maqsadi-iloji boricha xalqni ezish, uni muhtojlikda saqlash, «ozodlik», «tenglik» deb ataluvchi qullikda asrash uchun uni bir umr qora mehnati mahkum etishdir. Shu maqsadda O‘zbekistonni sobit ittifoq paxta xom oshiyobazasiga aylantirgan edi.

Yozuvchi ko‘ksidagi og‘riqni, ruhiy iztiroblarini romanga ko‘chiradi. Bu dard-o‘zbekning dardi, o‘zbekning dardi. O‘zbek qulday ishlaydi-chidaydi, farzandining boshi og‘ir mehnatdan chiqmaydi-chidaydi, o‘zbek davlatga falon million paxta etkazib beraman deb chang yutadi, zahar yutadi chidaydi, shuncha mehnatu xo‘rlik evaziga «boqimanda» tavqi la‘natini oladi-chidaydi. Romanda guyo obrazlar soyasida qolgandek bir kuchli obraz bor. Bu-o‘zbek chidami, o‘zbek matanatining fojiasi, davr psixologiyasi.

Yozuvchi «Otamdan qolgan dalalar» romanida o‘zbek dehqonining tipik obrazini yaratadi. Bu bilan Dehqonqul obrazini timsol darajasiga ko‘tarishga muvoffiq bo‘ladi. Dehqonqul uchun paxta yashash mazmuniga aylanadi. Paxta ko‘zga ko‘rinmas kishan bo‘lib, Dehqonqulning qo‘l-oyog‘ini, hohshi irodasini, orzu-umidlarini kishanlaydi. U o‘zini erkini paxta ixtiyoriga topshiradi. Mustamlakachilar xalqni yana uzoq yillar davomida o‘z isnanjasida ushlab turish uchun yangi qatag‘on usuli «o‘zbeklar ishi»ni o‘ylab chiqarganda, pichoq borib suyakka taqaladi. Qiynoq kameralardagi zambilar o‘zbeklarni ne-ne ozobga solganlarida, xo‘rlaganlarida Dehqonqullarning ko‘zi ochiladi.

«Otamdan qolgan dalalar» romanini tahlil qila turib beixtiyor bir haqiqatni anglab etamiz. Oddiy o‘zbek dehqonining hayotini talqin qilish uchun nafaqat yozuvchi bo‘lish kerak, balkim inson shu hayotga singib ketishi va uning butun dardi alamini o‘z yuragining og‘rig‘ida his qilish kerak. Buning uchun ijodkor o‘zbek bo‘lib tug‘ilishi o‘zbek bo‘lib yashashi, o‘zbek bo‘lib mehnat qilishi kerak. Ana shunday dard Tog‘ay Murodga nasib etgan va o‘z iste’dodi tufayli o‘zbek romanini yana ham yuksakka kutardi.

«Adabiyot xalq hayotini aks ettirar ekan, u, albatta, ijtimoiy turmushdagi milliy, umuminsoniy jihatlarni badiiy ifodalashi tabiiy bir holdir. Milliylik va umuminsoniylik adabiyotning ruhida chuqur iz qoldiradi. Shu sababli, milliylik va umuminsoniylikning estetik hodisa hamdir. Milliylik va umuminsoniylik estetik kategoriya sifatidagi mohiyatini to‘g‘ri anglamay turib, badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlarini, o‘ziga xosligini ijtimoiy-estetik vazifasini-hayot bilan adabiyot o‘rtasidagi dialektik munosabatni tushinish mushkul»<sup>18</sup> degan edi adabiyotshunos T. Boboev.

Darhaqiqat milliylik nafasi ufurib turgan badiiy asarning o‘quvchilar qalbiga tez etib borishi aniq, ayniqsa u xalq tiliga yaqin bo‘lsa.

Tabiiyki, an‘anaviy romanlar kabi noan‘anaviy romanlar ham roman janri talablariga javob berar ekan, romanga xos tafakkur badiiylik komponentlari kabi janrni yuzaga keltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Ko‘rsatib o‘tish joizki, roman janri dinamikasida ba‘zan mustaqil yo‘nalishlar adabiy yangilanishga o‘tish jarayonida yangi yo‘nalishni yuzaga keltiruvchi tamoyillar aylanadilar. Roman tarixidan F. Dostoevskiy ijodida psixologik uslub polifonik janrni, XX asr boshida esa polifonik talqin moderinizmni yuzaga keltirgani ayon. Milliy istiqlol davrida yangilanayotgan o‘zbek roman janri tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahonning nufuzli estetiklari ko‘rsatib utgan murakkab sintez uslubi o‘zbek romanlarida ham namoyon bo‘lmoqda. Bu holni roman kompozitsion qurilishda ham, stilistikasida ham ko‘rish mumkin. Tog‘ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani stilistikasi lirik proza saj‘, erkin nasrning sintezlashgan uslubidir. Asarda roman tafakkuri orqali istilo sabablari, mohiyati, fojiasi falsafiy mantiq yordamida mushohada qilinadi.

Har bir yozuvchi o‘z badiiy uslubiga ega ekan, o‘zbek romanlarida bu komponent qanday amalga oshiriladi?

---

<sup>18</sup> Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -T.: 2002. –B. 85.

Yozuvchi Tog‘ay Murod ijodida hayotdagi oddiy hodisalardan ulkan badiiy umumlashmalar chiqarish, qahramonlar olamini hayot haqiqati mezonida tasvirlash, jozibali, betakror milliy obrazlar yaratish, milliy udumlar, ma‘rosimlar, an‘analarni milliy qadriyatlar darajasiga ko‘tarish avval qissalarida, so‘ng esa «Otamdan qolgan dalalar» romanida yozuvchining noyob iste‘dodidan darak berdi. Oddiy o‘zbek xalqining bag‘rikengligi badiiy istiora darajasida talqin etildi. O‘zbekona ohang Tog‘ay Murod qahramonlarining xarakterini belgilovchi xususiyat bo‘ldi, sovet turmush tarzi, paxta monopoliyasining asl basharasi ochib tashlandi.

Ona-Vatanga muhabbat, ona-erga sadoqat Tog‘ay Murod qahramonlarining borlig‘iga jonu tan bo‘lib singib ketgan. Yozuvchi o‘zbek xalqining istiqloqligiga bo‘lgan tashnalgini tasvirlabgina qolmay, quvgin va qatagonlarda, yo‘qlik va xo‘rliklarda sinmagan o‘lmas ruhiyatini yaratdi. Bo‘ri polvondagi jo‘mardlik Vatan uchun fidoyilikka aylandi. Qoplon bobo va Oymomo buvidagi oqibat, mehr-muhabbat Dexqonboy va uning ayoli timsolidagi dard bo‘ldi.

Jaloliddin ketmon, Aqrab qo‘rboshi, Dehqonqul — bobo, ota, o‘gil — uch avlod misolida 130 yillik mustamlaka davrida o‘zbek millati boshidan kechirgan ayanchli taqdir hamda o‘zbek xalqining istilochilarga nisbatan nafrati, xalq ruhida kurash g‘oyasining etilishi shart-sharoitlari “Otamdan dolgan dalalar” romanining asosiy mavzusidir.

Mustamlaka sharoitida o‘zbek oilasining ma‘naviy inqirozi, tanazzul sabablari, inson ruhida mutelik holatining yuzaga kelishi yozuvchi Abbas Saidning “Besh kunlik dunyo” romanida «Bobo-ota-o‘g‘il” — uch avlod taqdiri timsolida badiiy talqin qilindi.

Shokir bazzoz, Rasul aka, Anvar bobo, ota obrazlari yozuvchining «Xonchorboqqa tun cho‘kkanda», «Rayhon isi tutgan hovli» qissalarida yordamchi personajlar vazifalarini bajargan bo‘lsalar, «Besh kunlik dunyo»

romanida bosh qahramonlar darajasiga ko'tarildilar. Qissadan romanga, oddiylikdan murakkablikka yo'naltirilgan voqealar rivoji turg'unlik yillarida tubdan chirib borayotgan tuzumning tanazzulga yuz tutgan siyosati muqaddas deb sanalmish o'zbek oilalariga ham moddiy, ham ruhan ta'sir qilgani, katta bir o'zbek xonadoni miqyosida yuz berayotgan voqea-hodisalar tashqi muhit iskanjasida emirilayotgan botiniy inson olami — ruhining so'nib, sinib borayotgani romanning bosh g'oyasini tashkil etadi. O'zbekona mulozamat, oriyat, andisha, hatto kibr roman qahramonlari xarakteri orqali ochila borib, insonning muhitga moslashishi, o'zi istamagan holda muhit iskanjasiga tushib qolishi oqibatida shaxsni hamisha kurashga chorlab turuvchi ichki «men»idan ajralishi ruhiy iztirobi talqini romanda yozuvchi uslubining ahamiyatga molik shakllaridan hisoblanadi.

Ikkala roman mavzusi, bunday olib qaraganda, bir-biriga yaqin: mustamlaka siyosati davrida tuzum «dasturini» mukammal bajaruvchi «robot-mexanizmlar» hayotining badiiy in'ikosini yaratish. Ammo voqelik talqinida ikkala yozuvchi kontseptsiyalari turlicha. Tog'ay Murod qahramonlari tuzum siyosatini rasman qabul qilsalarda, ruhan, qalban qabul qilmaydilar, ular ruhida kurash hissi, ona-er mehri ustuvorlik qiladi. Hatto turg'unlik yillarida davlatning paxta monopoliyasi siyosatiga ko'rinmas iplar bilan chambarchas bog'langan Dehqonqul siyosat qurboni, og'ir mehnat quli bo'lib ko'rinsada, aslida esa u ona-er fidoyisi, mirishkor dehdon, er ilmining, paxta ilmining olimi, o'z mehnatining samarasini ko'rmagan minglab o'zbek dehqonlarining biri.

Dehqonqul obrazini, uni o'rab turgan muhitning badiiy talqinini yaratishda yozuvchi qo'llagan hajv va kinoya Dehqonqul obraziga emas, o'sha davrga, davr siyosatiga qaratilgan. Romandagi voqea-hodisalar tafsilotlari yozuvchining o'tkir nigohi, zukko qalbi bilan tanlab olingan, badiiylik baxsh etilgan. defolyatsiyadan zaharlanib o'lgan Ziyodning

momosining: «Voy bolamey, paxtaga yo‘liqqan bolam-ey, voy bolam-ey, paxta urib ketgan bolam-ey», degan nolalari soddadil o‘zbek ayolining bo‘sh-bayovligiday, go‘lrigiday ko‘rinsa-da, ochopati sovet davlati uchun o‘zbek bolalari taqdiri sariq chaqaga ham arzimastligini yozuvchi momoning ohu faryodlari orqali ifodalaydi.

Oddiy xalqning ayanchli taqdiri, dardu hasrati kuyunchaklik bilan tasvirlansa, o‘zidan chiqib, o‘zagini qirquvchilarning barcha kirdikorlari o‘tkir hajv tig‘i ostiga olinadi. Maktab direktorining egizak qizlarining biriga Klara Tsetkin sharafiga Klara, ikkinchisiga Roza Lyuksemburg sharafiga Roza deb nom berishida ham bir ramziy ma‘no bor. Hanuzgacha milliy ruhimizga zid Mels (Marks, Engel’s, Lenin, Stalin nomlarining abriviatursasi), Tel‘man, Oktyabr, Ernest, Marks kabi ismli o‘zbeklar hali ham oramizda uchraydi. Siyosan so‘kir, mustamlakachilik mohiyatini anglamay, farzandlariga bir umrga o‘zlarining tubanlik yorliqlarini yopishtirgan otalarini nafaqat farzandlari, kelgusi avlodlari ham kechirmasa kerak.

Yoki yarim asrdan ziyod subhidamda yangragan «Assalom, rus xalqi, ulug‘ og‘amiz!», deb boshlanuvchi O‘zbekiston madhiyasini olaylik. Qullik iskanjasida to‘tga aylanayotgan xalqning muteligi bundan ortiq bo‘lmasa kerak. Romanda ushbu fakt ham o‘zining badiiy talqinini topgan.

Xalqning muteligi, ruhiy tutqinligi «Besh kunlik dunyo» romani qahramonlarining hayoti tasvirida ham ko‘rish mumkin. Nimagadir mutelik, kimgadir tobelik Shokir bobo oilasining har bir a‘zosiga o‘z hukmini o‘tkazgan. Shokir bobo, Rasul aka, Anvar mustamlakachilikning turli davrlarida o‘sib-ulg‘ayib, xarakterlari shakllangan.

Shokir bobo go‘yo bu dunyoning tashvishlaridan, ortiqcha daxmazalaridan charchagan. U ko‘nglidagini hech kimga ochmaydi. Uning ko‘nglini faqat tushunish kerak. Uning qalbini, orzu-o‘ylarini anglash fakat



Anvarga nasib etgan. BOF yaratib, o'zidan ezgulik qoldirishni niyat qilgan bobosining qalb kechinmalari Anvarning ruhiy iztiroblariga yaqin.

Istiqlol xalqimiz orziqib kutgan taqdir bo'lgani sababli istibdod tub mohiyati badiiy obrazlar orqali ochib berilgan T.Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romani qizg'in va samimiy kutib olindi. Aslida romanning salohiyati nafaqat unda ko'tarilgan ijtimoiy-siyosiy muammolarning dolzarbligida, balki, roman poetikasining teranligida hamdir, Yozuvchi qo'llagan bayon uslubi qahramon «men»ida olib borilishi roman qahramoni Dehqonqul hayotining individual-sub'ektiv tasvirigina emas, istibdod iskanjasiga mahkum insonlar takdirining badiiy-tipologik talqini ham hisoblanadi. Qahramon «men»i boshidan kechirganlarini shunchaki hikoya qilmaydi, u mushohada yurgizadi, ayanchli hayotining sabab va mohiyatini izlaydi, o'ziga baho beradi, umumlashtiradi, o'zini manqurtlikka olib kelgan kechmishi haqida xulosa chiqaradi, U o'zini oddiy odam sifatida tanishi, tan olishi hurlikning eng yuqori nuqtasida kechadi. Qaxramonning falsafiy-psixologik mushohadasi teranlashgani sayin romanga jalb etilgan mavzu mohiyati ochib boriladi. Dehqonqul - ramziy ism, u butun bir o'zbek millati timsoli, hatto dalalar - Vatan ramzi. Yozuvchining badiiy mahorati shundaki, Dexhonqul timsolida nafaqat bir millat taqdiri, balki istibdod iskanjasida bo'lmish barcha xalqlar kechmishi badiiy jonlantirib beriladi.

Yozuvchi mahorati roman tilida ham mukammal namoyon bo'ladi. Saj'da ifodalangan bayon uslubi, prozaik tasvirning poetik talqini bilan uyg'unlashtirilishi romanda metaforik obrazlilik bilan berilgan bo'lib, ular ramz darajasigacha ko'tarilgan. Mutelikning hatto farzandlariga ism berishlarida namoyon bo'lishi, qizil rang - qon rangi, beshikka bitilgan bitiklar - istibdodga qarshi isyon yoki kelajakka bo'lgan umid kabi ramziy ma'noga ega ifodalar romanda ko'plab uchraydi.

«Jahon adabiyoti» jurnalining o'tgan sonlaridan birida rus adibi V.Voykovichning «Monumental targ'ibot» romani tarjimasi e'lon qilindi. Bu roman qahramoni bilan Tog'ay Murodning «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» asaridagi Botir firqa obrazida hayratda qolarli darajada yaqinliklar bor.

Deyarli bir davrda yashab, bir-birlaridan mutlaqo bexabar holda dunyoning ikki chekkasida yashayotgan ikki adibning romani qahramonlaridagi o'xshashlik va har ikkisidagi mushtaraklik jahonning eng yaxshi asariga borib tutashishi. Bu-so'z san'ati rivojidadagi, adabiy jarayondagi tushinish va tushintirish mushkul bo'lgan sir-sanoatlardan biri, balki eng qizig'i. Bunday g'aroyib holatlarning sodir bo'lishida qandaydir qonuniyatlar bormikan, bular zamona zayli, davr ruhi bugungi bashariyat, jumladan ijod ahli tafakkuri tarzidagi xos xususiyatlar oqibati emasmikan, degan uylarga borasan kishi.

Darhaqiqat «Monumental targ'ibot»dagi Aglaya bilan «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romanidagi Botir firqa biri ayol, ikkinchisi erkak ekanligini mustasno qilganda, ko'p jihatdan bir-birlariga juda yaqin: ikkovi ham deyarli tengdosh, 20- yillar oxiri - 30- yillar tarix sahnasiga chiqqan, butun vujudi kommunistik mafkura, e'tiqod g'oyasi bilan yo'g'rilgan, shu e'tiqod yo'liga jonini tikkan, kompartiya arbobi-raykom kotibi darajasiga ko'tarilgan, mustabid tuzum siyosatini amalga oishirishda sobit turgan ikki arbob, bu yo'lda hech kimni o'zlarini ham, o'zgalarni ham ayamagan. Har ikkisiga ham uzoq umr nasib etdi. Ular deyarli asr tengdoshi. Asr oxiriga kelib, ular amal qilgan e'tiqod sarob bo'lib chiqdi, ular o'z qo'llari bilan yaratgan haybatli qasrlar birin ketin qulab tusha boshladi, biroq ular otdan tushsa ham, egardan tushishni istamadilar, ular tagi puch e'tiqodlariga sodiqligicha qoldilar. Ularning fojiasi, ham ayanchli, kulguli qismati ana shu jarayonda juda yorqin namoyon bo'ladi. Shunisi muhimki, har ikki asarda ham soxta e'tiqod qurbonlarini oshkora qaralash, masxaralash fosh etishiga urinish yo'q; ikkala

asar muallifi ham qahramonlarini biri tirik inson sifatida tushunib, ularga ham oson emasligini, ularning tashvishlarida muayyan asoslari borligini chin dildan hiss etib, qalam tebratadilar. Har ikki asar qahramonlari ham realizmning bugungi kundagi noyob ehsoni, ikkolovi ham xuddi tirik inson sifatida bor fe'l-atvori, dardi-dunyosi bilan ko'z oldingizda «mana-men» deb turadi.

Mushtarak jihatlarga qaramay har ikkisi ikki olam: Agliya-rus ayoli, rus zaminini odami: Botir farqi esa sof o'zbek farzandi. Aglaya qochaqon portlash oqibatida o'z e'tiqodining ramzi, necha yillar ne-ne mashaqatlar bilan xonadonida asrab-avaylab kelgan zohiy haykali ostida qolib halok bo'ladi. Botir farqi-budan-da og'irroq qismatga muhtalo; u noyoni va echimi yo'q muammo hamda iztiroblar girdobida yashashda davom etadi.

Ayni paytda Botir firqiobrazi bugungi o'zbek adabiyotida o'ziga xos hodisadir.«Botir firqa partbiletini tag'in pufladi. Silab siyladi. Ehtiyot uchun chalife shim qissasiga soldi. Endi, oshkora aytdi: - O'rtoq Yelsin shunday tabarruk partbiletini tashladi,-dedi. Yaki-tag'in Kreml saroyida tashladi. Ming qilsada, o'rtoq Yeltsin nasroniy-da, nasroniy, o'rtoq el'tsin nasroniyligiga bordi. Xudoga shukurlik, musulmonman, musulmon. Men musulmon farzandi, meni boqqan partbiletini tashlamayman. Men musulmon farzandi, partbiletini tashlab, nonko'r bo'lmayman!».

Ko'rinib turibdi yozuvchi qahramonning ruhiy holatini o'ziga xos yo'sinda tasvirlagan. Hatto kommunistik partiya barbod bo'lib, uning dahiylari undan voz kechsa ham Botir farqi bunday qila olmaydi. U bu e'tiqodiga sodiq qoladi. O'zining musulmon, dohiylarining nasroniyligining farqiga boradi-yu, o'zi alohida yo'l tanlab ruhan erkin nafas ololmaydi-Bu esa o'sha davrda bizning o'zbek xalqi qay darajada qaram qilib qo'yilganining shafqatsir tasvir ifodasidir.

Milliy istiqlol ta'sirida jamiyatda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilgan ekan, bu jarayon birinchi navbatda inson tafakkuri in'ikosi sifatida romanda talqin etiladi. Shu sababdan ham milliy ruh, o'zbekona bag'rikenglik, jumardlik, o'zlikni anglash, millat istiqloli uchun kurash mustaqillik davri o'zbek romanchiligining bosh mavzusidir. Milliy ongni, o'zlikni anglatuvchi asarlar yaratgan ijodkorlar orasida Tog'ay Murod o'ziga xos uslubi, o'z ovozi bilan ajralib turadi. Tog'ay Murod ijodida umumbashariy adabiyotga xos bo'lgan talqinlarning mavjuddigi uning milliy adabiyotimiz an'analaridan oziqlanibgina qolmay, jahon adabiyoti durdonalarini ham o'qib- o'rganganligidan dalolat beradi. Nazarimizda, bunday uslub go'yo faqat o'zbek romanlariga yoki faqat Tog'ay Murod qalamigagina xosdek tuyuladi. Yozuvchi talqinidagi har bir voqea, obraz orqasida millat taqdiri, oddiy xalq qiyofasi jonlanadi.

Yozuvchi ijodida umumbashariy adabiyotga xos bo'lgan talqin o'zbek milliy ruxi bilan o'yg'unlashtirib yuborilganining shohidi bo'lar ekanmiz, betakror badiiy mukammal qissalari bilan XX asrning 80-yillari o'zbek nasri rivojiga katta hissa qo'shgan Tog'ay Murod o'z ijodida romanga xos tafakkurni shakllantirdi va o'ziga xos uslubda «Otamdan qolgan dalalar» romanini yaratdi.

Bo'ri polvon, Ziyodulla chavandoz, Qoplon bobo, Oymomo kabi ko'p qirrali go'zal obrazlarni yaratib, qalami charxlangan Tog'ay Murod «Otamdan qolgan dalalar» romanida o'zbek dehqonining tipik obrazini yaratdi. O'zbek millatining taqdiri, o'tmishi va kelajagi obrazi timsolida badiiy jonlantirilgan bo'lib, unda sodda, baxshiyona uslubning qo'llanilishi romandagi obrazlilikni oshiradi va xalq tilining rango-rang nozik qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tog'ay Murod avvalgi qissalarida davlat olib borgan mafkuraviy siyosatning ayrim salbiy oqibatlari, turg'unlik davrida avj olgan buzuqlik va

munofiqlikni qalamga olgan bo'lsa «Yulduzlar mangu yonadi»da raisning nafs yo'liga kirishi, «Ot kishnagan oqshom»da zotdor otlarning go'shtga topshirilishi, «Oydinda yurgan odamlar»da qotib olamdan o'tgan odamlarning nafaqasini olishi va h.k.), «Otamdan qolgan dalalar» romanida sobiq shurolar tuzumi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosatining illatlari, milliy ozodlik kurashining parokandalikka uchrash sabablari, paxta yakka-hokimligining oqibatlarini, millatning qatagon qilinishini o'zbek xalqi taqdiri misolida ochib beradi.

«Otamdan qolgan dalalar» asari zamonaviy romanga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, yangi o'zbek romani mezonlarini ham birmuncha oydinlashtirdi. Tog'ay Murod qahramonlari zaminni, zilol suvlarni, jannatmakon bog'-rog'larni yaratgan egamning tuhfasini deb suyib ardoqlagan, qadrlagan oddiy odamlar bo'lib, ular har bir qarich erga mehrini beradi, bolasiday avaylab-asraydi, padari buzrukvoriday, validai muhtaramasiday e'zozlaydi. Romanda tasvirlangan Jamoliddin ketmon zam barcha o'zbeklar qatori ana shunday xususiyatlarga ega. Nazarimizda, yozuvchi ana shu erni, osmonni, suvni, odamlarni ham suyib, ham kuyinib tilga oladi. Millat parokandaligiga sabab buluvchi omillarni mantiqan to'g'ri ko'rsatadi. «Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer», degan xalqimizga suyanmagan xonu amirlar Oqposhshoga qarshi kurashda jipslashmay mustamlaka tamg'asini millat taqdiriga bostirishadi.

Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida bir o'zbek dehqoni sulolasining uch vakili-bobo, ota va o'g'il taqdiri timsolida o'zbek xalqining istibdod ostida kechgan 130 yillik hayoti badiiy talqin qilinadi. Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlaridagi umumiylik shundaki, ular shu ona-erni sevishadi, uni bulakcha mexr bilan e'zozlashadi. Ollah bergan rizqni shu zaminda topishadi.

Jamoliddin ketmonning nazarida shu tuproq non kabi aziz, gudak singari

beg‘ubor, chashma suvidek toza. U «kalima qaytarib-qaytarib, xudoni yodlab-yodlab, xudoga shukrona aytib-aytib ketmon chopadi». Uni shu tuprokda bog‘lagan narsa mehr, ona-zaminga bo‘lgan e‘tiqod. Dalasining bir yashnagani-uning bir yashagani. U shu dalasiyu, mexnati orqali afsonaga aylanadi: «Jamoliddinning ketmoni dalasiday».

Jamoliddin hosildor yerlariga, jannatmakon bog‘-rog‘lariga, yurtining turfa xil ma‘danu boyliklariga ko‘z tikib kelgan istilochilardan nafratlanadi. Ularning harom-xarish ishlaridan hazar qiladi. Ularning qadami yetgan yerdan uzoqroq yurishga harakat qiladi. Istilochilarga qarshi ko‘ksida isyon tug‘iladi. O‘g‘li Aqrabni ularga bo‘lgan nafrat-isyon ruhda o‘stiradi. Ona-zaminni e‘zozlashu halol mehnat qilish, farzandini yurtparvar, elsevar, g‘animlarga nisbatan shafqatsiz qilib o‘stirish oddiy dehqon Jamoliddin ketmon hayotining mazmuniga aylanadi. Romanda tasvirlanishicha, Jamoliddinning butun hayoti o‘g‘lining ko‘z ungida kechadi, u o‘g‘li uchun ibratga aylanadi. Demak, Jamoliddin emin-erkin bo‘lmagan o‘z hayotida qisman bo‘lsada niyatiga erishadi: o‘g‘li Aqrab mehnatkash, elsevar, yurtparvar yigit bo‘lib voyaga yetadi.

O‘zbek dehqoni sulolasining ikkinchi vakili Aqrab tabiatan otasi Jamoliddinga juda yaqin. U ham ona-zaminni suyib-ardoqlaydi, dalasini mehr bilan parvarish qiladi. Taqdir Jamoliddinning peshonasiga chor Rossiyasi istilosini bitgan bo‘lsa, Aqrab o‘zlarini endi «Qizillar» deb ataguvchi o‘sha istilochilarning ikkinchi bir avlodi bilan yuzma-yuz bo‘ladi. Qizil istilochilar oddiy xalqqa «Hukumat, yerlar sizniki, butun boylik sizniki, hamma teng huquqli, xalq o‘z taqdirini o‘zi belgilaydi» deb yolg‘on-yashiq va‘dalar berib, xalqning ko‘pchilik qismini o‘zlarining yo‘llariga yurgizishga muvaffaq bo‘lishadi. Ammo Aqrab singari imoni but, e‘tiqodi mustahkam o‘zbek yigitlari g‘anim niyatini zukkolik bilan angelaydilar. Ulardagi ichki bir to‘yg‘u qizillar maqsadining asl mohiyatini anglashga yordam etiladi:

«- Dehqonqul! Qizil yomonda, qizil yomon. Boisi, qizil rang-qon rang.

**Qon yomon, yomon.**

**- Dehqonqul! Qon rangdan yorug'lik tilama. Qon rangdan ro'shnolik tilama. Qon rangdan panoh tilama. Qon rang - jallod rang».**

Yuqorida keltirilgan lavhadan ko'rinib turibdiki, rang timsollarini badiiy talqin qilishda Tog'ay Murod realist yozuvchi M.Bulgakov uslubiga juda yaqin turadi. Aqrab – xalqning milliy ozodlik kurashida qatnashib, «bosmachi» nomini olib, el-yurt ozodligi, millat erki uchun shahid ketgan vatanparvar o'zbek yigitlarining tipik obrazidir.

O'zbek dehqoni sulolasining uchinchi vakili Dehqonqul taqdsiri, uning oilasi, hamkasblari, hamqishloqlari timsolida istibdod tufayli xalq boshiga tushgan fojialar yozuvchi tomonidan kuyunchaklik bilan badiiy talqin qilinadi. Bobosi Jamoliddin dalasini sevardi, uni avaylab-asrardi, e'zozlardi, u butun umrini dalasiga bag'ishladi, boshiga tushgan barcha qiyinchiliklarga bardosh berdi. Negaki, uning ko'ksida ruh bor edi, dalalariday cheksiz, poyonsiz erki bor edi.

Otasi - qo'ligul Aqrab ham dalasini sevardi, u qadagan chup nihol bulardi. Chunki uning ham ko'ksida shu erga, dalasiga nisbatan ulkan mehr bor edi. Akrabning kuksida nafaqat mehr bor edi, o'z dalalariga egalik hissi, dalalari uchun kurash hissi bor edi. Millat taqdiri hal bo'ladigan kunlarda ana shu his Vatan uchun, el-yurt uchun kurash tuygusiga aylanadi.

Dehqonqul ham ona-erga, dalasiga, eliga mexr-muhabbat, e'tiqod otameros, bobomeros. U ham butun umrini dalalariga bag'ishlaydi. Dalalar nafaqat xayotining mazmuniga, balkim uning fojiasiga ham aylanadi.

Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul obrazlari orasida juda katta tafovut mavjud. Bu ular yashagan davr va zamon ta'siridir. Uchala obraz timsolida o'zbek xalqining yaqin o'tmishi tarixi yaratiladi.

Dehqonqul dalam, deb yonadi, kuyib-pishadi, ter to'kadi, zahmat

chekadi. Lekin yillar davomida dalasining qo‘liga aylanganini sezmaydi. Negaki, mustamlakachilik siyosati yuqoridan va chetda turib shu qadar ustomonlik bilan olib borilar ediki, qarsaklaru nishonlar, va’dalar unvonlarga uchgan xalq «buyuk g‘oyalar» yo‘lida tinmay mehnat qilardi.

Dehqonqul oilasining turmush tarzi misolida asosiy o‘zbek oilalari bo‘lmish qishloq aholisining juda past – «o‘lmasa o‘tar» hayot tarzi namoyon bo‘ladi. O‘zi qancha og‘ir mehnat ostida ezilmasin, kimyoviy dorilardan zaharlanmasin, bir umr kamchilik, yetishmovchilik ko‘rmasin, jamiyatda huquqsizlik, tengsizlik sezmasin, u o‘z haetidan nolimaydi, shu «it yotish - mirza turish» turmushga ko‘nib yashaydi. U qishloqdagi o‘ziga o‘xshagan odamlar orasida kam ham emas, ortiq ham emas. Aksariyat aholi ana shunday hayot kechiradi. Lekin hech kim: «Tongdan shomgacha tinimsiz ishlab, nega yomon yashaymiz?» deb o‘ylamaydi. Negaki, «mustamlakachilik faqat mamlakatni g‘orat qilmaydi, undan ham yomonrog‘i, odamlarni, xalqni ruhan g‘orat qiladi, shunday qiladiki, qul hayotini kechirayotgan, insonga nomunosib hayot kechirayotgan odamda shu hayotga qarshi norozilik, isyon ruhi butkul so‘nadi».

Mustamlakachilarning maqsadi - iloji boricha xalqni ezish, uni muhtojlikda saqlash, «ozodlik», «tenglik» deb ataluvchi qullikda asrash uchun uni bir umr qora mehnatga mahqum etishdir. Shu maqsadda O‘zbekistonni sobiq Ittifoq paxta xom ashyo bazasiga aylantirgan edi.

Yozuvchi ko‘ksidagi og‘riqni romanga ko‘chiradi. Bu dard-o‘zbekning dardi, o‘zbeklik dardi. o‘zbek qulday ishlaydi, chidaydi, farzandining boshi og‘ir mehnatdan chiqmaydi-chidaydi, o‘zbek davlatga falon million paxta etkazib beraman deb chang yutadi, zahar yutadi-chidaydi, shuncha mehnatu xurlik evaziga «boqimanda» degan tavqi la‘natni oladi-chidaydi. Romanda obrazlar timsolida bir kuchli obraz bor. Bu-o‘zbek chidami, o‘zbek chidamining fojiasi.



Yozuvchi «Otamdan qolgan dalalar» romanida o‘zbek dehqonining tipik obrazini yaratadi. Bu bilan Dehqonqul obrazini timsol darajasiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ladi. Dehqonqul uchun paxta yashash mazmuniga aylanadi. Paxta ko‘zga ko‘rinmas kishan bo‘lib, Dehqonqulning qo‘l-oyog‘ini, xoxish-irodasini, orzu-umidini kishanlaydi. U o‘zini, erkini paxta ixtiyoriga topshiradi. Mustamlakachilar xalqni yana uzoq yillar davomida o‘z iskanjasida ushlab turish uchun yangi qatag‘on usuli - «o‘zbeklar ishi»ni o‘ylab chiqarganda, pichoq suyakka borib taqalgan edi. Qiynoq kameralaridagi zombilar o‘zbeklarni ne-ne azobga solganlarida, xo‘rlaganlarida Dehqonqulning ko‘zi ochiladi.

Tog‘ay Murod poetikasining individual xususiyatini ta’minlovchi yana bir badiiy komponent – bu bayon stilistikasi. Tog‘ay Murod ijod yo‘li yozuvchi poetikasining shakllanishi, uning ichki dinamikasi, tadriji nuqtai nazaridan tahlilga jalb etilar ekan, nasrning kichik janridan yirik polotnolar qadar taraqqiy etgan ijodida har bir janr mukammal darajada talqin etilganiga amin bulamiz. Inson ruhiy-estetik olamini boyituvchi, ularni ilohiy bir poklik va ma’naviy barkamollik sari boshlovchi poetik ko‘tarinkilik, qo‘shiq kabi jozibador tasvir va xush talqinlar Tog‘ay Murod tafakkuri, tili va uslubining, yozuvchi badiiyatining asosiy bir xususiyatini tashkil etadi.

«Otamdan qolgan dalalar» romanida yozuvchi qahramonlari galereyasi, romanga talqin uchun jalb etilgan mavzu va g‘oya tahlili jarayonida Tog‘ay Murod ijodi mantiqan bir-biriga bog‘lanib, uyg‘unlashib ketishi bizga yozuvchi mahorati: poetikasi, uslubi, badiiyati o‘zbek romanchiligida o‘ziga xos ajralib turishiga amin bo‘lamiz. Roman mutolaasi jarayonida Tog‘ay Murodga xos an’anaviy talqin uslubi teranlashib yaxlit bir bayon – roman stilistik uslubi shakllangani namoyon bo‘ladi. Yozuvchi romanda butun umr dalada ketmon chopib, serquyosh yurtida ylkasi oftob ko‘rmagan, qut-barakot yurtida kosasi oqarmagan bobodehqon siymosini Dehqonqul

timsolida ochib berar ekan, nafaqat qahramon ramz sifatida yuksalgani, balki romanga xos barcha badiiy komponentlar ramz darajasida talqin etilgani yozuvchi ijodining roman janridagi tadrijiy muvaffakiyatini ta'minlaydi. Hatto badiiy til uslubi, badiiy ifoda bayoni bir karashda notabiiy tuyuladi, xar bir to'liq tugallangan ifoda o'quvchini xayolan va fikran olislarga, o'tmishga, tarixga olib ketadi, har bir fasl qisqa, lunda ifoda uslubida nafaqat yozuvchining, balki o'quvchini ham mutolaa-tafakkur etishga chog'laydi, muloxaza yuritadi, badiiy tasvirdan mantiqan hayotiy umumlashmalar chiqaradi.

«Men Farg'onachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo'laman».

Ushbu fasl mana shu bor-yo'g'i bitta jumladan iborat. Ammo jumlaning o'qib, poeniga yetar ekansiz, beixtiyor ko'ksingizda aynan qahramonga xos o'zbekona faxr tuyasiz, u orlanmaydi, «Farg'onachi Jamoliddin ketmon nabirasi» bo'lishlik tuyg'usi qahramon qalbini hayajonga soladi, uni to'lqinlantiradi, xuddi mana shu ichki tug'yon uni maydalashishga, qandaydir ta'rifu tavsiflar epik bayoniga yo'l bermaydi. Beixtiyor kitobxon ham shu hissiyot tufayli so'zsiz ifoda etilgan bepoyon dalalarni, moviy osmon kengligini, halol mehnati, peshona teri bilan umrguzaronlik qilgan zabardast o'zbek timsolini kuradi. Uning mahobati shunchalar yuksakki, kitobxon bu yuksaklik zamiridagi oddiy haqiqatni beixtiyor anglab yetadi. Bu qahramon Dehqonqul emas, uning bobosi Jamoliddin ketmon ruhdagi erk, ozod inson baxti edi.

Yozuvchi badiiy maxorati shundaki, roman talqiniga jalb etilgan mavzu uch avlod – bobo, ota, o'g'il – Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul timsolida istilo oqibatida yuksalish sari emas, fojia sari yo'nalgan avlod tadrijini ko'rsatadi.

«Men Surxoni Aqrab qo'ligul o'g'li bo'laman», ushbu jumlada «Surxoni» va «qo'ligul» epitellari yozuvchi roman tafakkuriga olib kirgan ikkinchi bir maqsad – ikkinchi avlod ko'ksidagi to'yg'u – Vatanga mehr ifodasida

keladi. Aqrab tadrijan Jamoliddindan g'oyaviy etuk, uning tabiatida ikkinchi bir kenglik – «Surxon» dashti ramzida sukunat yoki ayovsiz talotup ma'nosida keladi. Yo Vatan xo'r buladi, yoki jon shahid», Aqrab timsolidagi o'zbeklar hayotining ma'nosiga aylanadi.

Romanning 1-faslidagi epik bayon badiiy talqin jarayonida falsafiy xulosa bilan almashinadi: «Dehqonqul! Qon rangdan yorug'lik tilama. Qon rangdan ro'shnolik tilama. Qon rangdan panoh tilama. Qon rang – jallod rang» (27-bet) yoki «Bosmachi bo'lib qaysi yurtni bosib olibmiz? Bosmachi bo'lib, qaysi elni talon-taroj etibmiz, Dehqonqul!» (32-bet). Yozuvchi badiiy talqiniga xos badiiy teranlik falsafiy mushohada vazifasini qahramon ongiga yuklaydi, ammo bu mulohazalar ham mufassal tahlil uslubida olib borilmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, qahramon anglab yetgan fojia – istibdod ostidagi millat taqdirining falsafiy xulosasi, haq-xuquqi uchun kurashgan inson uchun kurash yo'li Haq xukmiday yangraydi.

Biz tahlilga jalb etayotgan «Otamdan qolgan dalalar» romanida lirik proza, erkin proza, sajli nasr sintezlashuvi romaniy sinkretik stilistikani yuzaga keltiradi, romaniy sinkretik stilistika taxlilini diskretik (har bir uslub alohida) yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

«Otamdan qolgan dalalar» romani stilistikasida sajli nasrning qo'llanilishi aslo asarning badiiy qiymatini tushirmaydi yoki uni janr tamoyiliga ko'ra xalq dostonlariga yaqinlashtirmaydi. Roman stilistikasi sajli nashrni qo'llash orqali yozuvchi nafaqat roman poetik nutqining jozibadorligini, emotsional ritmikligini oshirishga muvaffaq bo'ladi, balki real voqelik ichra evrilayotgan inson badiiy talqin realligini, qahramon badiiy tilining yanada jonli, ifodali, o'ziga xos bo'lishini ta'minlaydi:

«Chin, dalalarimda harorat o'lchagichim bo'lmadi. Harorat o'lchagichga kunimda qolmadi.

Men dalalarim haroratini vujud-vujudim bilan bildim. Men dalalarim haroratini tan-jonim bilan tuydim.

Vujud-vujudlarim aytdi, kaft-kaftlarim aytdi: ana endi ek, dedi». (81-bet).

Ushbu lavhaning stilistik bayonida «bo‘lmadi-qolmadi»da - saj’i mutavoziy (to‘liq saj’) «vujud-vujudim bilan bildim-tan-jonim bilan tuydim» «vujud-vujudlarim aytdi, kaft-kaftlarim aytdi»da - saj’i mutarraf (qofiyali saj’) qo‘llangan bo‘lib, ritmik emotsionallik orqali matn ruhidagi ko‘pma’nolikni ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa roman matnini bayon qilish va anglash jarayonida nafaqat yozuvchi, balki o‘quvchidan ham tafakkur bilan mushohada qilishni talab etadi.

«Otamdan qolgan dalalar» romani badiiy-estetik arxitektonikasining o‘ziga xosligi ko‘pgina hollarda falsafiy mushohadada, psixologik tahlilda yozuvchining erkin proza (oriy nasr)ga xam keng o‘rin berganini ko‘ramiz:

«Odam biron imoratga ziyon bersa – falon moddaga binoan javobgarlikka tortiladi. Odam biron texnikaga ziyon bersa – falon moddaga binoan javobgarlikka tortiladi. Odam biron texnikaga ziyon bersa – falon modda bo‘yicha qamatiladi. Odam birovni ursa – falon moddaga binoan kesiladi.

Nima uchun odam yerni zahar dorilaydi – ammo javobgarlikka tortilmaydi?» (195-6.). «Otamdan qolgan dalalar» romani poetik arxitektonikasida lirik proza, sajli nasr, oriy nasr turlari sintezlashar ekan, roman stilistikasi sinkretik talqin uslubi orqali amalga oshiriladi. E’tirof etish kerakki, o‘zbek romanlarida sinkretik uslub shartli-ramziy roman tamoyilida «Chinor», «Davr mening taqdirimda» (A.Muxtor), «Ming bir qiyofa», «Tepalikdagi xaroba», «Maydon», «Aflotun» (O.Muxtor) kabi bir qator romanlarda tafakkur tiplari, tamoyillar sintezlashuvi jarayoni kuzatiladi, ammo roman statikasida T.Murod qo‘llagan uslub o‘zbek romanining poetikasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu esa yangilana-yotgan o‘zbek romani uchun ijobiy yutuqdir.

Tog‘ay Murod asarlarining tili ham juda nozik. Uning asarlarida folklordagi saj uslubi seziladi bu usul bilan u o‘z asarlarining tilini boyitib

unda soʻzlar takrorlanish borasida yangi maʼno yoki maʼnoni kuchaytish qahramonlarining ruhiy holatini va asardagi psixologizmning aniq ifoda qilinishi uchun xizmat qiladi.

### III BOB.

## XALQ OG‘ZAKI IJODI AN‘ANALARI

Folklordan badiiy adabiyotda foydalanish hamma vaqt ijodiy xarakterga egadir. Badiiy adabiyotdagi folklorizm shu asar bilan, uning barcha komponentlari bilan shu qadar birikib, kirishib ketadiki, ularni tashqi tomondan ajratib olishga imkon bo‘lsa ham, biroq mazmunan, shaklan shu asar bilan zaruriy, muhim bog‘lanishda bo‘ladi.

Demak, folklorga xos barcha komponentlarning adabiyotdagi o‘rni ijodiy qayta ishlanish, rivojlantirish orqali belgilanadigan, natijada bu komponentlar folklorga asoslangan, ammo yozma badiiy adabiyotning muhim zaruriy komponentiga aylanib qolgan bo‘ladi. Ushbu o‘rinda taniqli yozuvchi Ch.Aytmatovning quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinlidir: «Men hamisha epos haqida fikr yuritaman. Bu xalq donishmandligining o‘ta murakkab, ko‘p qirrali tajassumidir. Lekin men eposni o‘z asarimga shunchaki emas, balki uni o‘zlashtirgan holda kiritaman».<sup>1</sup>

Xullas, yozuvchi o‘z g‘oyaviy niyati, mahoratiga qarab folklor materialiga turlicha munosabatda bo‘ladi. Ya‘ni bu o‘rinda u folklor materialini aynan ishlatsa, yana bir o‘rinda uni shu darajada o‘z asarining ruhiga singdirib yuboradiki, uni oddiy folklorizmni qayd etish yo‘li bilan aniqlab bo‘lmaydi. Biroq har ikki holda ham folklordan foydalanish ijodiy rivojlantirish-novatorlik xarakteriga ega bo‘lmog‘i lozim. Yozma adabiyotning ilm tarixidan boshlangan ushbu an‘anaga qiziqish, uning keng imkoniyatlaridan foydalanish, saboqlaridan o‘rganish zarracha ham susaygan emas. Aksincha, adabiyotimizda folklorning barcha imkoniyatlaridan, uning go‘zal badiiy usullaridan sarguzashtlik xususiyatlaridan, kulgu orqali fosh etish san‘atidan ijodkorlar unumli foydalanib kelmoqdalar.

Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, xalq og‘zaki ijodi sarchashmalaridan oziqlanmagan, ijodiy madad olmagan birorta san‘atkorni uchrata olmaysiz. Biroq bu oziqlanish, madad olish turli ijodkorlarda turlicha shakl va darajada voqe bo‘ladi, uni bir xil qolip va shakllar bilan belgilash qiyin. Masalan, ayrim yozuvchilar ijodida juda yorqin ko‘rinib turadi. Bu xususiyat ijodkorning ertak yoki dostonlar syujeti asosida asarlar yaratishida yoki xalq maqoli va matallaridan foydalanganida emas, balki unda xalqqa xos fikrlash, obraz va epitetlar qo‘llash, qahramonharakterini yaratish, hatto psixologik munosabatlarini berish, qisqasi uning uslubi va manerasida mujassamlashgan bo‘ladi. Bu xildagi ijodkorlarning asarlarida ko‘proq romantikaga moyil ruh hukmron bo‘ladi.

«Shunday san‘atkorlarxam bo‘ladiki, ularning ijodida folklor yarq etib ko‘zga tashlanmaydi. Biroq ularning asarlari zamirida, ularning mazmunida, ruhida folklor ta’siri sezilarli o‘rin tutadi».<sup>2</sup> T.Murodning qissalarini bevosita folklordan o‘sib chiqqan, xalq og‘zaki ijodining zamonaviy yozma bir ko‘rinishi deyishimiz mumkin. Negaki, u o‘z qissalarida nafaqat xalq maqollari va matallari, iboralaridan foydalanadi, balki xalqona mushohada yuritadi, bo‘layotgan voqea-hodisalarni xalqona ko‘z bilan ko‘rib, ulardan xalqona xulosalar chiqaradi. Ushbu xil xalqchilik uning asarlarining barcha komponentlariga xos bo‘lib, uning birortasini asar tarkibidan chiqarib, «mana bu unsur faolon folklor asarining falon o‘rnidan olingan, deya ta’kidlab ko‘rsatish qiyin.

Ushbu holni T.Murodning birinchi qissasidayoq sezish mumkin. Uning birinchi qissasi «Yulduzlar mangu yonadi» haqida yozuvchi O.Yoqubov «Adabiyot va zamon» to‘plamiga kiritilgan «Davr bilan hamnafas» maqolasida quyidagicha fikr bildiradi: «Sharq yulduzi» jurnalida yosh

<sup>1</sup> Ushbu iqtibos adabiyotshunos M.Amilovanning «O‘zbek sovet adabiyotida fol’klor an`analari» kitobidan olindi. T., Fan, 1970.

<sup>2</sup> Amilova M. «O‘zbek sovet aadbiyoti fol’klor an`analri». T., Fan, 88-bet.

yozuvchi T.Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi eʼlon qilindi. Qissa hajm jihatdan kichkina, qaxramonlari ham oz. Biroq oʻz oldiga qoʻygan maqsadni ado etgan. Polvon Boʻriboy obrazi kitobxonning yodida qoladi. U xalq ichidan chiqqan, elning mardlik, tantilik, olijanoblik xislatlarini oʻzida mujassam etgan qaxramon. Biroq asarda haddan tashqari zichlik, usulda nasriy ohang toʻla saqlanmagan joylar uchraydi. Baʼzan qaxramonlar zamindan sal uzilgandek koʻrinadi. Bundan qatʼi nazar, biz yosh yozuvchi T.Murodni qutlashimiz lozim».

Koʻrib turganimizdek, oʻziga va boshqalarga talabchan, tajribali yozuvchi T.Murodning qissasini asosan yaxshi kutib olayotganiga qaramay, yosh muallifdan andak ginaxonlikxam qilayotir. Asardagi zichlik, ayrim oʻrinlarda nasriy usuldan chekinish, baʼzan qahramonlarning zamindan uzoqlashuvi hollari ulkan yozuvchiga yoqmayotgandek. Lekin shuni alohida taʼkidlash oʻrinliki, xuddi mana shu jihatlar T.Murod uslubini belgilovchi, uning asarlarini folklor bilan bogʻlovchi oʻziga xos iplardir.

Asardagi zichlikni olsak, bu folklorga xos boʻlgan, yozma adabiyot uchun ham zarar qilmaydigan qisqalik, voqea-hodisa, qahramonlar harakatlarining tasviridagi loʻndalikdir. T.Murod qahramonlarini barcha tafsilotlari bilan tasvirlab oʻtirmaydi. Hatto baʼzi oʻrinlarda uning oʻzlari haqidagi fikrlarini bayon qilish orqali obraz toʻgʻrisida kitobxonda muayyan tushuncha hosil qiladi. Mana asar qahramoni Boʻri polvonning el oldidagi soʻzlari:

«- Xaloyiq, davrada halol olishib, elga tomosha koʻrsataylik! Haq-nohaqni men ajrim qilaman. Aytganim-aytgan, deganim-degan! Davrdagi Boʻri polvon soʻzim: tarafkashlik, gʻirromlik, oshna-ogʻaynigarchilikka yoʻl qoʻymayman!». Kuzatayotganimizdek, muallif Boʻri polvon xarakteridagi toʻgʻrilik, halollikni oʻz tilidan gapirtirib, siqiqlikka erishmoqda. Garchi ushbu xarakteristika qahramon tilidan boʻlsa ham, oʻquvchi bunga ishonadi.



Bo‘ri polvon o‘z ahdida turuvchi, halol inson ekanligi asarning boshqa o‘rinlaridagi voqealar vositasida ochilib, bu ishonch yanada mustahkamlanadi. Hech qanday shubha yo‘qqi, yozuvchi ushbu o‘rinlarda Bo‘ri polvon unday, Bo‘ri polvon bunday deb ko‘pso‘zlilik qilganda, asarning badiiyligiga putur yetardi.

O.Yoqubov ta’kidlab o‘tgan nasriy usuldan chekinish masalasiga kelsak, bu ham xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan, T.Murod tomonidan ijodiy o‘zlashtirib olingan yozuvchi uslubining muhim bir qirrasidir. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi namunalarini ijro qiluvchi baxshi va jirovlar asarning ruhiga mos epitet va iboralar qo‘llash bilangina chegaralanib qolmasdan, bo‘layotgan voqeaga, qahramonlarning ruhiyatiga mos ravishda matnni jo‘shqin yoki aksincha bir-muncha mahzun ohang va ranglar bilan ta’minlaydi. Xususan, «Bobotog‘ cho‘qqilarining uchi yorishdi. Qirga o‘rlab ketayotgan so‘qmoqda bir eshakli borayapti. Bo‘ri tanidi: O‘roqchilarga qiyoy olib borayapti. Bo‘ri tishlarini tishlariga qattiq bosib, gavron bilan ho‘kizning sag‘risiga so‘kdi. Bor ovozi bilan qo‘shiq boshladi:

Sakrab-sakrab haydagin-a,

maydayo, mayda,

Sakson botmon kelsin-a,

maydayo, mayda,

Yo‘rtib-yo‘rtib haydagin-a,

Maydayo, mayda,

Yuz botmonlar kelsin-a,

Maydayo, mayda.

Jonivor, anavi ketayotgan eshaklini ko‘rayapsanmi? U mening qiyomatli oshnam Nasim. Jonivor, mening na otam, na aka-ukalarim bor. Yolg‘iz o‘g‘ilman. Otam ham, aka-ukalarim ham shu oshnam».

Yuzaki qaralganda ushbu matn oddiygina, jo'ngina ko'rinadi. Ularda hech qanday sehru sir yo'qdek. Biroq Bo'rining tarjimai holidan xabardor bo'lgan kitobxon uchun ushbu parcha o'ziga xos bir qo'shiq, oshiq yurakning dardlarini o'zida ifodalagan hazin bir qo'shiq. Gap shundaki, o'sha «qiyomatli oshnasi uning ko'ngli suv ichgan qizga uylangan. Yozuvchi qahramonning «tishlarini tishlariga bos»ganini tasvirlash bilangina uning alamidan o'quvchini xabardor qiladi. Qolgan barcha yukni matn ohangiga, aniqrog'i, qahramon nutqining oddiy nasriy bayondan farq qiluvchi jihatlariga yuklaydi.

T.Murod qissada xalq iboralaridan ham o'rinli foydalanadi. Xususan, Bo'ri polvon taqdiri hal bo'ladigan lavha tasviriga bag'ishlangan sahifalarda bu holat yaqqol seziladi. «Davrada odati bo'yicha bosh bakovul ro'parasiga unga talab qilgan yosh polvonning qabatiga borib o'tirishi kerak. Biroq qurning o'rtasiga borib cho'k tushdi. Bo'ri polvon o'zining bu harakati bilan anavi yosh bola bilan yonma-yon o'tirishga or qilishini bildiradi. Yosh polvonga ko'rpangga qarab oyoq uzatsangchi, degan qarash qildi».

Matnda ishlatilgan «ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi» iborasi qissa qahramonning ayni paytdagi kayfiyatini to'la va aniq ochishga xizmat qilgan. Bo'ri polvon Ismoil polvonni mensimasdan qurni aylanib yura boshlaydi. Ozgina fursat o'tgach, umrida birinchi marta «yulduz sanaydi», ya'ni o'sha mensimagan Ismoil polvondan yengilib, kuragi yerga tegadi. Keyingi voqealar ham bizga xalq dostonlarini eslatadi.

Bo'ri polvon ertasiga uyida ho'kiz so'ydirib, katta qozonda polov damlatadi. Xeshu aqrabo, hamsoyalar, qishloqning gapga yetar odamlarini chaqiradi. Davra bilan butunlay xayrlashganini, ya'ni kurash tushishni butunlay qo'yganligini e'lon qiladi. Hamqishloqlarining iltimoslariga qaramay olishuvni butunlay tark etib, ko'p o'tmay uylanib oladi...

Yozuvchining «Ot kishnagan oqshom» qissasi ham muallif tomonidan folklorga yanada yaqinlashish ro'y berganligini ko'rsatadigan asardir. Qissa quyidagi jumla bilan boshlanadi:

«Birodarlar, ko'rgilik-da, ko'rgilik! Bir erta uyg'onib, kallamga qo'l yugurtirsam, sochlarim orasida yara-chaqa uch beribdi. Parvoyi palak yuraverdim. Onagayam aytmadim».

Keltirilgan matn parchasidan ko'rinib turibdiki, bu jumlar xalq dostonlarini baxshilarning bayon usulini eslatadi. Shuning uchun asar bir o'tirishda o'qiladi. Asar kitobxonni o'zi bilan ergashtirib, dashtga yetaklaydi, qaxramonlar bilan qo'shib, dashtning sof havosidan to'yib-to'yib nafas olgandek, ular bilan qo'shib uloq chopgandek bo'lasiz.

T.Murod hech bir ijodkorga xos bo'lmagan uslubda qalam tebratadi. Yozuvchi ustozlariga ham taqlid qilmaydi. Dunyoni, uning voqea hodisalarini, kishilar orasidagi munosabatlarini, ularni yuzaga keltiruvchi fikr-o'ylar, orzu niyatlar, ularning samarasi bo'lmish his-tuyg'ularni o'ziga xos ko'z bilan, aniqrog'i xalq ijodkorlariga xos tarzda ko'radi va ta'riflaydi.

«Ot kishnagan oqshom» qissasi qahramoni oddiy qishloq yigiti. U o'zi va tibbiyot xodimlarining e'tiborsizligi sababli sil bo'lib qolgan, bunga orlanib, maktabni beshinchi sinfdayoq tashlab ketgan, biroq toza qalb egasi, xalqimizning barcha sara an'alarini o'zida mujassam etgan mardona yigit. Asar o'sha Ziyodulla kal tilidan hikoya qilinadi. Shu tufayli uning xarakteridagi dangallik, halollik, mardlik kabi qirralar asar matnida ham sezilib turadi. Mana, Ziyodulla kalning uylanishi bilan bog'liq voqealar ifodasi.

«Men baribir shashtimdan qaytmadim. Bosib sovchi qo'yaberdim. Aytinglar, men hali ot olib, ko'pkari chopaman, dedim. Noz qilib-qilib oxiri ko'ndi. To'y-tomosha bo'ldi. U mastona-mastona qadam qo'yib, chimildiqqa kelin bo'lib kirdi. Men mardona-mardona odim qo'yib, kuyov bo'lib kirdim.

Unga ko‘rgan tushimni aytdim. Sen ham shunday tush ko‘rib edingma, dedim. Ko‘rib edim, dedi. Lekin taniy olmay qoldim, chiroq o‘chiq edi, dedi. O‘sha men edim, dedim ko‘kragimga urib. Siz ekanligingizni, bilib tegdim-da, dedi. Axay! Birodarlar, Momosuluv tushimda Cho‘lpon edi, hushimda Oy edi, qo‘ynimda Oftob bo‘ldi».

Bu lavhalar bizga xuddi doston va ertaklardagi manzaralarni eslatadi. Qahramonning voqalardan ta’sirlanish natijasida jo‘shqin kayfiyatining samarasi sifatida nomayon bo‘layotgan hayajon esa, matnni ertak va dostonlarda farqlantirib, unga originallik baxsh etadi. T.Murodning individual ijodkor sifatidagi uslubini belgilaydigan omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ulkan rus tanqidchisi N.G.Chernishevskiy san‘atning vazifasi insonning, konkret shaxsning turmushini badiiy ifodalash orqali ijtimoiy hayotning muhim qirralarini yoritishdir, deb ko‘rsatgan edi. Darhaqiqat, har bir realist san‘atkor ma’lum davr hodisalarini aniq bir nuqtai nazardan kuzatish orqali ular haqda ma’lum bir xulosaga keladi. Asarning to‘qimasiga singib ketuvchi ana shu fikr, qarash ijodkorning hayot to‘g‘risidagi konsepsiyasi sifatida xilma-xil badiiy vositalar orqali o‘z aksini topadi. Hayotni ifodalashda, uning ta’sirchanligini ta’minlashda inson xarakterini namoyon qila bilish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Yozuvchi yaratgan insoniy xarakter barkamol, originalligiga qarab mazmundorlik yorqinlik, estetik ta’sirchanlik kasb etadi.

Shu ma’noda T.Murod yaratgan Ziyodulla kal xarakteri realistik san‘at talablariga to‘liq javob beradi, deya olamiz. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi asarlarida qahramonlar xarakteri individual xususiyatlari bilan hamisha ham namoyon bo‘lavermaydi. Ziyodulla kal esa, o‘zining belgilovchi xususiyatlari bilan xalq og‘zaki ijodi qahramonlariga o‘xshab ketsa-da, yozuvchi tomonidan individual qirralar bilan ta’minlanganligi tufayli

o‘quvchida muayyan shaxs sifatida taassurot qoldiradi, kitobxonning doimiy hamrohi, do‘stiga aylanadi.

Ziyodullaning kalligi uni xalq og‘zaki ijodi an‘analari bilan bir bahya yaqinlashtiradi. Ma‘lumki, ertak va dostonlarda kallar obrazi juda ko‘p. Ular aksariyat holda kambag‘al, quyi tabaqa vakillaridan bo‘lishidan qat‘i nazar, o‘zlarining uddaburronligi, zakovati bilan, ayrim ertaklarda baxtli tasodif tufayli orzulariga erishadilar. O‘ziga qarshi turgan kuchlar ustidan ba‘zan jiddiy kurashlar natijasida, ba‘zida tasodifiy hodisalar natijasida g‘alabaga erishadilar, murod-maqсадlariga yetishadilar.

Ziyodulla kal mohiyat hech qanday sehru sinoatga, baxtli tasodifga tayanmaydigan, o‘z kuchi, mehnati va ifodasiga ishongan realistik xarakterdagi qahramon. Uni ham barcha oqil kishilar singari tabiat va jamiyatdagi salbiy voqea-hodisalar ranjitadi. Kishilar orasida urug‘ otib borayotgan aldanchilik, ijtimoiy hayotdagi salbiy holatlar larzaga soladi, uzun tunlar uyqusizlik chekib, xayol suradi. Odamlar orasidagi g‘iybat, birbirlarini ko‘ra olmaslik, hukumat tomonidan go‘sht topshirish rejasini uddalash bahonasida otlarni yig‘ib olish, ot egalarini tuzumga qarshi kishilar deb bekorga ayblashga urinib, huquq-tartibot organlari xodimlarining nohaqligi kabi illatlar Ziyodulla kal obrazi orqali kitobxon qalbinixam larzaga soladi:

«- Biz sotsialistik jamiyatda yashayapmiz. To‘g‘rimi o‘rtoq rais?

- To‘g‘ri, to‘g‘ri!

- Yo, ot minib boshmachi bo‘lmoqchimisiz? Kechirib qo‘yasan!

- O‘zi ijodingda boshmachi o‘tganmi? Bir tekshirib ko‘rish kerak... -

Katta unday demang, mening otam bechora sovet tuzumini deb qurbon bo‘lgan. Otga kelsak, ot yigitning yo‘ldoshi, katta. Qolabersa ko‘pkari chopamiz.

- Il, sen o‘zi qaysi jamiyatda yashayapsan, miya? Shu paytgacha eshakning qulog‘iga tanbur chertayapmanmi? Ko‘pkaring eskilik sarqiti! Yovvoyining o‘yini.

- Katta, o‘zi kal kalla-kalla emas ekan-da. Bir mening kalam shundaymikin, desam, siznikiyam menikidan qolishmaydi.

- O‘chir-e....»

Parchadan ko‘rinib turibdiki, mahalliy xo‘jalik raisi, rayon militsiyasi va boshqa boshqaruv tashkilotlaridan kelgan kishilar davr jamiyatining oynasi sifatida vazifa bajarib kelmoqda. Shu o‘rin ta’kidlash kerakki, sobiq sho‘rolar davrida mahalliy xalqlarimizni milliy qadriyatlarimizdan, g‘ururimizdan ajratish niyati ko‘pkari, kurash, navruz singari ming yillardan beri xalq hayotiga singib ketgan urf-odatlar, sport o‘yinlarimiz ta’qirlab qo‘yildi. Bu shunchaki bir siyosat emasdi. Buning zamirida mahalliy xalqlarni iskanjada tutish, o‘tmishini unutdirish kabi mudhish bir maqsad yashiringan edi. Darhaqiqat, chavondoqlik, davralarda kurash tushib, o‘z kuchini oshirish, g‘alabalaridan g‘ururlanish mahalliy xalqlarda o‘ziga xos ishonch tuygusini uyg‘otishi va tarbiyalash mumkin edi. Yoki navro‘zlarda sayr qilishib, milliy ashulalar, sport o‘yinlar, xilma-xil taomlar, pishiriqlar va urf-odatlarni namoyish qilish millatda bizxam millat ekanmiz, kuch-qudratimiz bor ekan-ku, degan g‘urur uyg‘otishi mumkin edi. Bu esa mamlakatni boshqarayotgan «og‘a»larimizga mutlaqo yoqmas harakatlar edi. T.Murodning yozuvchi sifatidagi fazilatlaridan eng asosiysi mana shu masaladir, desak xato bo‘lmasa kerak.

Buni baralla aytishga ma’naviy xuquq beradigan bir narsa bor. U ham bo‘lsa, «Ot kishnagan oqshom» qissasidagi muallifning o‘ziga xos e’tirofi. Mana shu o‘rindan bir parchani kuzataylik:

- Botir aka, bo‘lgan ish bo‘ldi, bo‘yog‘i singdi. Qo‘ying, shu arizabozlikni, - dedim.

- Iya-iyaya! Hey, og'izga q'rab gapirilsin! Kim arizaboz? Bizmi? Biz yozuvchimiz, bilib q'ay, yozuvchi! Xalq yo'lidagi, haq yo'lidagi yozuvchimiz! Anavi g'azal, roman... yozuvchilar yana nima yozadi, o'rtoq'xamidov?

Qabatidagi adabiyot muallimi o'z ulushini qo'shdi:

- Poema, ballada...

- Ha-ha poema, ballada yozuvchilarning yozuvchi, emas, biz yozuvchi! Mana biz! Yozuvchilarning aqidalarida fakt yo'q, adres yo'q. Masalan, mana o'zimizning Tog'ay! Bo'ri bechoraning o'g'li! Olishni kitob qilib yozdi. Endi ko'pkarini ham kitob qilayotgan emish. Yozishga yozdi, lekin tekshirtirmadi, chora ko'rdirmadi. Xalqqa nafi tegmadi. Xalq yozuvchining asarlarini pul sarf qilib oladi. Vaqtini isrof qilib erinmay o'qitdi. Keyin... qayg'uli asarni nima deydi o'rtoq'xamidov? Ha, ha tragediya! Tragediya bo'lsa, ta'sirlanib yig'laydi... Bari quruq safsata! Xalqning biron-bir ishini bitkazib bermaydi. Xalqning kam-ko'sti esa, achib yotibdi. Xalqqa kim amaliy yordam beradi? Biz! Demak, asl yozuvchi biz!... Ikkinchi marta og'izdan arizabozga degan gap chiqarilmasin, ha!

- Tavba qildim aka, tabba qildim. –Shunday bo'lsin! Endi gapirilsin. Boshidan gapirilsin!

Matn parchasidan ko'rinib turganidek, T.Murod «arizabozlar sultoni» Botir mirob tilidan sho'rolar davridagi ahvolni o'ziga xos tarzda fosh qilmoqda. O'ziga xos usul bilan o'zining birinchi qissasida ko'tarilgan masala kattaroq davrlar diqqatini jalb qilmaganligi pisanda qilmoqda. Asarning 1977- yilda, sho'rolar siyosatining ayni gurkirab turgan pallasida yozilganligini e'tiborga olsak, bu juda katta ijodiy jasoratdir.

T.Murodning ushbu qissasida xalq dostonlaridagi yana bir an'ana juda ustalik bilan puxta ishlanib asar to'qimasiga singdirib yuborilgan. «Alpomish» dostonidagi Boychibor, «Go'ro'g'li»dagi G'irot, G'irko'k nomli

otlar o‘sha dostonlar qahramonlarining yaqin yo‘ldoshi, turli balolardan o‘z egalarini asrab qoluvchi, egasining barcha g‘am-tashvishlari, quvonchlarini his qiluvchi jonivorlar sifatida aks ettiriladi. «Ot kishnagan oqshom»dagi Ziyodulla kalning oti Tarlon ham xuddi shu otlar singari qissa qahramonlarining tayanchi va hamdard do‘sti sifatida talqin qilinadi. Mana, yozuvchining ot haqidagi Ziyodulla kal tilidan bergan ta’rifi:

«Dunyoda nima ko‘p, to‘rt oyoqli jonivor ko‘p!... To‘rt oyoqli jonivorni ot qilishning o‘zi bo‘lmaydi. Dumli hayvonni odamga el qilish, barchaning-da qo‘lidan kelmaydi!

To‘rt oyoqli jonivorni ot qilishning o‘zi bo‘lmaydi. Dumli hayvonni ot qilish uchun avvalambor, ko‘ngilda bo‘lmog‘i lozim...

Dostonchi doston aytadi. Xato aytsa, shartta bas qiladi. Boshqatdan, tuzatib aytadi. Shoir kitob bitadi. Kitobdida bir joyi yoqimsiz bo‘lsa, shoir qalam bilan sharta-sharta o‘chiradi, yoqimli qiladi.

Rasmchi surat chizadi. Suratda odam qoshi qoshday bo‘lmaydi. Ot yosh yolday bo‘lmaydi. Qiyomiga kelmaydi. Rasmchi darhol odam qoshini qoshday qiladi, ot yolini yolday qiladi.

Chavondozi bo‘lsa, otni tuzata olmaydi. To‘rt oyoqli jonivor ot bo‘layotib... ha-ha, ot bo‘la yotib... nima fe‘l-atvor topsa, shu fe‘l-atvorida qoladi. Nima qilish topsa, shu qilig‘ida qoladi.

Nima ko‘rsa, nima bilsa, nima o‘rgansa, barcha, barchasi tanasida qoladi, miyasida qoladi.

Ana shundan keyin chavondozi otni tuzataman, desa, o‘ziga javr qiladi, Otni tuzatib bo‘lmaydi!

Birodarlar, sara ot chavondozi zakovatidan bino bo‘ladi! Sara ot chavondozi qalb qo‘ridan bino bo‘ladi!»

Ot ta’rifi bilan bog‘liq yana bir parcha:



«Birodarlar, bo‘z ot kandy bo‘ladi? Surpday oppoq bo‘ladi! Bordi-yu, ajdodida bo‘lsa, to‘qqizga to‘lganda tarlon bo‘ladi. To‘qqiz yoshida bo‘zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo‘ladi. shundek boshlab u bo‘z emas, Tarlon ot bo‘ladi. Tarlon xol-xol ot! Tarlon-otlar sarasi!

Birodarlar, to‘riq otning yuzdan biri yaxshi bo‘ladi, tarlon otning yuzdan biri yomon bo‘ladi! Birodarlar, ot tanimasang. Tarlon ol! Bizning bo‘z to‘qqizga to‘ldi, to‘qqizda tarlon bo‘ldi. Shunda, shunda bir orzum, o‘n orzu bo‘lib bolaladi. Bir quvonchim o‘n quvonch bo‘ldi!

Birodarlar, bo‘z otim Tarlon bo‘ldi! Men Tarlon otli bo‘ldim! Otning sarosi menda, quling o‘rgilsin, menda!».

Ushbu satrlarni o‘qigan ustoz yozuvchi Said Ahmad shunday yozadi: «Talantli adib qalamidan to‘kilgan ushbu starlarni o‘qirkanman, xayolimdan bir gap o‘tdi. «Dom»da yashab, umrini o‘tkazgan shaharliklarni o‘yladim. Inson bolasining uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilgan bu jonivorni faqat sirkda, kinoda ko‘rgan shaharlik ukalarimizga adibning bu so‘zlari qanchalik ta’sir qilishini bilaman. Shahar bolalarining tabiatdan, jonivorlardan qanchaliku uzoqlashib qolganliklariga achinib ketaman.

T.Murod otni shu qadar mehr bilan ta’riflaydiki, adib qo‘shiq aytayotibdi, deb o‘ylaysiz. Adib ko‘ngli kitobxon ko‘ngliga ko‘chib o‘tadi. Ot minib, adirlarda yeldek uchgingiz, ot yollarini silagingiz keladi.

T.Murod o‘zbek tilini kuylatadi. O‘zbek tilining jomi jilvalarini oftobga solib ko‘rsatadi. T.Muroddagi ushbu talant qirasi ayniksa, asar qahramoni Ziyodullaning ot bilan bog‘liq tuyg‘ulari tasvirida o‘zining bor ko‘rki va bo‘yi bilan namoyon bo‘ladi: «Ayo, Tarlon, sen mening akamsan. Uka desa degulik mendayin ukang bor, aka desa degulik sendayin akam bor, nima g‘amim bor? Ayo, Tarlon, sen mening birodarimsan. Mening birodarim sensan.

Ushbu satrlarni o‘qib bo‘lgach, xayolga tolasiz. Hozirgina mungli bir qo‘shiq tinglagandek bo‘lasiz. «Dasturxondagi go‘sh-tga tikildim. Ana shunday-da! Tarlon hademay shunday bo‘ladi-da? Lahimi bir yoqli, suyagi bir yoqli bo‘ladi-da? Eb-ey, eb-ey! Keyin kalla-poychasi alohida bo‘ladi. Tuyoqlarini itga otib yuboradilar. Itlar tuyoqlarini g‘ajib yeydi. Faqat tuyoqdagi nag‘al qoladi.

Yollari bilan dumlarini ko‘mib tashlaydilar. Yollar tuproq ostida chirydi. Shunday yollar-a? Bu yol emas, ipak, ipak! Bu yol emas, do‘mbira tori, do‘mbira tori!

Tarlon ot emas, Jumanbulbul kuylagan «kuntug‘mish»! Fozil Yo‘ldosh kuylagan «Alpomish»!. Gajak-gajak bo‘yinlar bo‘yin emas, do‘mbira! «Kuntug‘mish»ni go‘sh-tga topshirib bo‘ladimi? «Alpomish»ni go‘sh-t qilib bo‘ladimi?

Tarlon dirkillab-dirkillab o‘yladi. Birdan oyoq ildi. Orqa oyoqlarini keng yoydi. Boshini sarak-sarak qildi. Old oyoqlarini ko‘tardi! Tag‘in, tag‘inda ko‘tardi. Old tizzalarini xiyol bukdi. Old tuyoqlari erga egildi. Quloqlari olg‘a ding bo‘ldi. Tarlon orqa oyoqlarida tik turdi! Devor uzra olis-olislarga qaradi. Bobotog‘ cho‘qqilariga qaradi. Qaradi, qaradi..., bor ovozi bilan kishnadi!

Qishloq uzra kishnash taraldi. Xayol qildim, kishnab bobotoqqacha bordi. Birodarlar, tani jonim rohat qildi! Jonim entikdi, tanim yayradi! Ko‘nglim xo‘rsindi. Ko‘nglim jo‘shdi».

Yozuvchi shu singari gohida hazin, gohida jo‘shqin epizodlar bilan kitobxon ko‘nglini egallay boradi. Ziyodulla kalning otga bo‘lgan mehri kitobxonning ham qalbiga o‘tib, otni xuddi bir tirik odamdek tasavvur qilib sevib qoladi. Qishloqdagi otlar go‘sh-tga majburan topshirilib ketgandan keyingi manzarani ko‘ring:

«Birodarlar, necha-necha qorabayirlar ketiga qarab-qarab ketdi. Necha-necha jayronlar kishnab-kishnab ketdi. Necha-necha samanlar go'sht bo'lib ketdi. Qishloqda ot kishnamay qoldi. Saharlari ko'chalarda ot tuyoqlari tiqillamay qoldi. Oqshomlari otlar tarsillatib yer tepmay qoldi. Adirlarda otlar dupur-dupur chopmay qoldi...

Chavandozlar emchakdoshi urushdan qaytmagan bo'z bola misol mung'ayib qoldi. Olamni mashina ovozi buzdi: dut-dut-dut... Qishloqda ot nomi o'chdi.

Asarda bunday o'rinlarni ko'plab uchratish mumkin. Qissa kitobxon yuragi, bizni qurshab turgan jonivorlar olami, ularga insoniyat faoliyatining ta'siri, o'z navbatida ularning insonlarga ta'siri masalasini ochib berishga harakat qiladi. Bu bilan inson ham ona tabiatning bir bo'lagi, juz'i ekanligini ta'kidlaydi. Tabiatdan, uning vaikllaridan biri bo'lish otdan insonning ajralishi insonning ma'naviyatining cheklanib qolishiga olib kelishi mumkin, deya uqtiradi T.Murod.

Sharqning buyuk dostonlari «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Tohir va Zuhra» kabi asarlar necha yuz yillardan beri yashab, xalq dilining to'rida yashab kelmoqdalar. Ularda bir-birlariga etisholmay, muhabbat yo'lida jon bergan baxtsiz oshiq-ma'shuqlar taqdiri qalamga olinadi.

T.Murod ham doston desa arzigulik asar yozdi. Otini «Oydinda yurgan odamlar» deb atadi. Qissa nomini o'qishingiz bilanoq sizni allaqanday bir sirli, sehrlil oydin kecha bag'riga olgandek bo'ladi. Ichingizga, yuragingizga ajib bir nur o'rmalab kirgandek bo'ladi. Butun vujudingizni yoritib yuboradi. Qissada Qoplan bilan Oymomo farzand ilinjida tunni tongga, kunni oyga, oyni yilga ulab yashaydi. Qoplan xotinini Momosi, desa, xotini erini Bobosi, deb chaqiradi. Ular yo'q bolaning bobosi, yo'q bolaning momosi bo'lib, yillarni yillarga ulaydi. Bir-biriga mo'ltirab yashaydilar. Ular

uchramagan doktor, ular ko‘rinmagan tabib qolmaydi. Biroq na doktordan, na tabibdan naf ko‘rishadi.

T.Murod chol va kampir hayotini g‘oyat nozik, g‘oyat shoirona tasvirlaydi. Chol-kampirning o‘zarol muhabbatini qo‘shiqdek kuylab beradi. U bir-birini Bobosi, Momosi deb umr o‘tkazayotgan bir juft pokiza insonni oydingagi oy nuriga o‘rab tasvirlaydi. Oqibat ushbu juftning o‘zi ham, so‘zi ham, turush-turmushi ham oyning kumush nurlariga aylanib ketgandek tasavvur qoldiradi kitobxonda.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Axmad yuqorida ta’kidlagan manbada ushbu asar haqidagi fikrini shunday tugallaydi: «T.Murodning kuyib, yonib, o‘rtanib bitgan, ba‘zan faryod urib bitgan «Oydinda yurgan odamlar» qissasini «Muhabbat qo‘shig‘i» deb atagim keladi.

Darhaqiqat, T.Murod ushbu qissasi bilan o‘z talantining yana bir qirrasini namoyon qildi. Yana u nafaqat yurtimiz mard polvonlari va chavondozlarning ruhiyati, o‘zlariga xos ma’naviyati qirralarini, balki, oddiygina kishilarning hayot so‘qmoqlari, ularning o‘ziga xos o‘y-kechinmalari, mehr-muhabbatga to‘la yuraklarining rango-rang tuyg‘ularinixam juda chuqyr bilan va his qilar ekan.

Shunisi diqqatga loyiqki, ushbu asarning bu darajada muvaffaqiyatli chiqishidaxam xalq og‘zaki ijodining ta’siri juda kattadir. T.Murod qissada turli bahonalar bilan xalq og‘zaki ijodi namunalariga murojaat qiladi. Masalan, birinchi galda Qoplon va Oymomoning to‘yi munosabati bilan to‘y marosimining Surxondaryoga xos bo‘lgan jihatlariga diqqatimizni qaratadi. To‘yda aytilgan yallalar, kelinsalomlar bilan tanishamiz. Go‘yo o‘sha to‘yda o‘zimiz ishtirok etayotgandek bo‘lamiz.

«Kayvoni momo kelinni to‘ylovchilarga salom berdira berdi:

Soydan ho‘kiz suvlatgan,

Do‘mbirasini kuylatgan,

O'g'illarini uylatgan,  
 Qayinotamga salom!  
 Osmondagi yulduzday,  
 Qoshi qora qunduzday,  
 Dili oydin kunduzday,  
 Qayinonamga salom!  
 Baytlar kayvonidan bo'la berdi, ta'zimlar kelindan bo'la berdi:  
 Qozonlarning qopqog'i,  
 Ayollarning oppog'i,  
 Misli olma yonog'i,  
 Gulsun opamga salom!...

- Kayvoni momo, hamsoyasi Suvon daroz, men qolib ketdim, deb o'pkalayapti. – Unda eshitsin:

Tegirmonning noviday,  
 Adras to'nning boviday,  
 Daroz akamga salom!  
 Norboy cho'pon o'rnidan turab:

- Ay momo, kelin nimaga menga salom bermaydi, - dedi.
- Salom berganim bo'lsin, eshiting:

Qopga tiqqan poxolday,  
 Indal chiqqan shaqolday,  
 Cho'pon akamga salom!

Bo'ldi kulgu! – Hay momo-ey, bekor o'pkalabman-a! Kelin keldisi yaxshi, to'y bo'ldisi yaxshi.

Qissada Qoplon va Oymomo farzandtalab bo'lib, So'fi Oллоhyorning mozaratini ziyorat qilishi munosabati bilan ham juda ko'plab xalq og'zaki ijodi namunalari keltiriladi. Bularni So'fi Oллоhyor nomi bilan bog'liq rivoyatlar deyish mumkin. Masalan, So'fi Oллоhyor avvalgi davrlarda bek

ekan, uning qirq xotini, juda ko'p boyligi bo'lgan ekan. Zolimligi shu darajada ekanki, uni ko'rgan har bir qochishga harakat qilar ekan. U bir kuni shahar oralab borayotib ko'prik ustidan soyga qaraydi. Qarasa, soydan qip-qizil qon oqayotgan emish. Navkarlariga hodisaning sirini aniqlash buyuriladi. Ma'lum bo'lishicha, homilador bir ayol undan qochib, ko'prik tagiga yashiringan ekan. Qo'rquvdan qornidagi bolasini tushirib qo'ygan ekan...

So'fi Oллоhyor shoir yurakli kishi emasmi, «Shunchaga borib qoldimmi», deya o'ziga o'zi baho bera boshlaydi. Va nihoyat tarki dunyo qilib, bor mulkini tashlab, toat-ibodatga, el xizmatini qilishga chog'lanadi.

Oллоhyorning Vaxshimorga suv olib chiqishi, u erdan ilonlarni haydab chiqarishi kabi rivoyatlarxam kitobxon diqqatini o'ziga jalb qiladigan o'rinlardir. Shunisi diqqatga loyiqki, qissadagi rivoyatlar xalq og'zaki ijodidagi turdosh asarlardan butunlay farqlanadi.

T.Murod rivoyatlarning asosiy mazmunini saqlagan holda ularni reallashtiradi. Ya'ni ishtirokchilarning harakat, so'z va hissiyotlarining realistik tasviri orqali ularning hayotiyiligini, bo'lgan vaqealarga o'xshashligini ta'minlaydi. Masalan, xalq og'zida So'fi Olloyor Vaxshimordagi ilon saltanati podshosi Oq ilonga bir maktub jo'natib, ularni ushbu joydan ketishga majbur qilgan, degan juda qisqa rivoyatni T.Murod quyidagicha tasvirlaydi:

Emishki, Olloyor ilonlar podshosi Oq ilon nomiga noma bitdi.

Nomani yurakliroq bir xalifasiga berdi.

- Bor, oq ilon saltanatiga borib kel, - dedi.
- Qo'rqaman, taqsir, - dedi xalfa.
- Unda saltanat qaribiga tashlab qayt, u yog'iga navkarlari yetkazadi.

Xalfa nomani qayniga soldi».

T.Murod shu tariqa afsona ko‘rinishdagi rivoyatni reallashtiradi. Xalfa shu darajada qo‘rqadiki, o‘zini butunlay yo‘qotib qo‘ygan holda, yo‘lda uchragan «navkarlarning» vishillisi-yu pishildisini ham sezmay to‘g‘ri Oq ilon-podsho oldiga kirib borganini ham bilmay qoladi...

Albatta, ilonning maktubni o‘qishi, mazmunini chaqib, biror xulosa chiqarishiga zamonaviy kitobxon unchalik ishonmaydi. Shuning uchun ham T.Murod bu o‘ringa realistik bo‘yoq beradi.

«Oq ilon hukmrona chiyilladi! O‘z saltanatidagilarni qarorgohiga yig‘di! Inson bir kelib o‘rgandi-bo‘ldi. Endi kela beradi, tinchlik bermaydi, dedi. Ketamiz, inson qadam basmaydigan yerlarga ketamiz, dedi.

Jamiki qavmlarini ergashtirdi, o‘zini Xo‘jaipok daryo suviga tashladi. Undan Surxondaryo suviga o‘tdi. Surxondaryodan chiqib Zahartepaga o‘rladi. Zahartepa Oq ilon ko‘ngliga o‘tirmadi.

Oq ilonlar tag‘in yurish qildilar. Bobotoqqa yo‘l oldi.

Bobotog‘ning Govurgon degan yerini makon etdi...

Mana ikki asr kim, Bobotog‘ ilonlar makoni bo‘ldi».<sup>1</sup>

Ko‘rib turganimizdek, T.Murodning rivoyat ijodiy yondashuvi natijasida ushbu afsonaviy lavha kishi yuragini larzaga soladigan, ta‘sirchan realistik epizodga aylangan va asar to‘qimasiga tabiiy ravishda singib ketgan. Qissada bunday o‘rinlar nihoyatda ko‘p.

T.Murod o‘z qissasiga tasvir ob‘ekti qilib olgan yurtning milliy koloritini belgilovchi xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ham ustalik bilan foydalanadi. Shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, ularni asar tarkibiga shunchaki kiritish bilan cheklanmasdan, ularga katta g‘oyaviy yuk ham yuklaydi, qahramonlarning ruhiyatini ochishga xizmat qildiradi.

Mana necha yillardan beri farzand umidida yashab, umidlarini zang bosgan kampirning sovliq sog‘ayotib aytgan qo‘shig‘idan bir parcha:

---

<sup>1</sup> T.Murod. Ot kishnagan oqshom. T., Sharq matbaa-nashriyot konserni, 1994.

Bolaginang baxttingdir, turey-turey,  
 Uni olib uxlagin, turey-turey,  
 Bolalilar ma'rashar-a, turey-turey,  
 Bolasizlar qarashar-a, turey-turey....

Bu o'rinda ta'biri joiz bo'lsa, muallif bir o'q bilan ikki quyonni uryapti. Birinchisi, qo'shiqda kuylovchining – Oymomoning befarzandlik dardi, qayg'usiga «Bolasizlar qarashar-a» bilan ishora qilinayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yozuvchi iborani to'g'ri ma'noda, ya'ni bolasi qorako'l uchun so'yilgan sovliq ahvoli-ruhiyasini ko'zda tutmoqda. Har ikkala holda ham munгли bir ma'no qo'shiq orqali berilmoqda.

T.Murod o'z qissalarida xalq og'zaki ijodi materiallaridan, folklorizmdan ham unumli va o'rinli foydalanadi. Qissalarda «Ot o'rnini toy bosadi», «Ko'rpangga qarab oyoq uzat», «Kambag'alni tuyaning ustida ham it qopadi», «Yon qo'shni-jon qo'shni», «Mol egasiga o'xshamasa harom bo'ladi», «Eshak egasini, pishak bekasini tanimas» kabi maqol va matallar o'z ma'nolarida ishlatilib, asar matni, ba'zan qahramonlar nutqining ta'sirchanligini ta'mirlagan.

Shunisi diqqatga loyiqki, T.Murod xalq og'zaki ijodi materaillari asosida, ba'zida esa, butunlay original, aforizm xarakteridagi ibora va matallarni to'qib, asar tarkibiga singdirib yuboradi. Masalan, «Ot kishnagan oqshom»da quyidagi original matal va maqollarni uchratish mumkin: «Bir kishiga bir yomon har yerda bor», «Kal o'zini ovutar qo'ltig'ini sovutar», «Indamagin kalga, o'zi kelar holga», «Yaxshi otdan yiqilsa, yomon ta'nachi bo'ladi» va hakoza.

«Otamdan qolgan dalalar» nafaqat dolzarb mavzusi, balki badiiy jihatlari bilan-da adabiyotimizda jiddiy voqea bo'ldi. Asarning o'ziga xos qurilishi, betakror ifoda yo'sini, tildagi jozib ohang, samimiyat – bularning bari uning muvaffaqiyatini ta'minlagan asosiy omillardir. «Otamdan qolgan dalalar»



romanining markazida inson taqdiri turgan holda u tugal maqsad emas, romaniy qahramon dunyoni badiiy idrok etish, dunyo haqidagi, uning joriy holati haqidagi yaxlit badiiy kontseptsiyani shakllantirish va ifodalash vositasi. Shunga ko'ra, odatda, romaniy qahramon – o'z muhitiga sig'mayotgan, muhit bilan ziddiyatga kirishgan, izlanayotganshaxs sifatida namoyon bo'ladi. Dehqonqulda esa bu xususiyatlar ko'rilmaydi, u – kechagi kunini muhit izmida sassizgina yashab o'tgan, endi kechmishini mushohada qilayotgan odam. Dehqonqulning to'laqonli romaniy qahramon sifatida bo'y ko'rsatishiga rivoyaning birinchi shaxs tilidan berilgani monelik qilgan, ayni chog'da, xuddi shu narsa asarda lirik ibtidoni kuchaytirgani ham yaqqol ko'rinadi: asarning ko'p o'rinlarida voqeani tasvirlash emas, ularga munosabat bildirish maqsadi yetakchilik qiladi. Bularning natijasi o'laroq, asarda lirik ibtido salmoqli, badiiy jihatdan belgilovchi o'rin tutadiki, «Otamdan qolgan dalalar» nasrda bitilgan romanik xarakterdagi «poema»dek, «doston»dek taassurot qoldiradi. Asardagi ifoda yo'sini hamda voqelikni badiiy idrok etish usulining xalq dostonlariga eshligi uning muvaffaqiyatini ta'minlagan qo'shimcha omildir.

«Otamdan qolgan dalalar»ni realistik asar deganimiz holda, unda realistik shartlilik darajasining yuqoriligi va bu narsa qat'iy realizm talablaridan jiddiy chekinishlarga olib kelganligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Ko'rinadiki, asarda mustabid tuzumning tom ma'nodagi realistik obrazi emas, uning shartli obraziyaratiladi: o'quvchining ko'z oldida insoniylikdan butkul mahrum yovuzlik timsoli gavdalantiriladi. Asarning umumiy ruhini, «xiyla keskin – tendentsioz» ruhini belgilagan bu kabi usulning (yovuzlik lagerining o'ta shartliligi yu ezgulik lagerining hayotiy tasvirlanishi) ildizi ham aslida xalq og'zaki ijodidan oziqlanadi.

Me'yordan ortgan tendentsiozlik – qusur, uning realizmga xos emasligi isbot talab qilmaydigan ayni haqiqat. Ammo «Otamdan qolgan dalalar» –

davrning badiiy hujjati, unda jamiyatning mustamlakachilik barham topib, istiqlol ne'matiga noil bo'lgan paytdagi ruhiyati akslangani ham bundan aslo kam bo'lmagan haqiqat. Zero, unda hammamizning – «dehqon» («dehqon» – yer egasi demak emasmi?!) bo'la turib «qul»likda umrguzaronlik qilgan siz bizning kayfiyatimiz, parchalangan zanjirlar ustida turgancha kechmishimizga sog'lom nazar solgan, mustabid tuzumni yanib turgan holatimiz akslangan. Donishmandlardan biri «Insoniyat o'z o'tmishi bilan kulib xayrlashadi» degan ekan. Asar yozilgan paytda na Tog'ay Murod, na siz biz o'tmish bilan kulib, kulish qayda, xotirjam xayrlashishga ham qodir emasmiz, negaki, istibdodzanjirlari qoldirgan yaralardan hali qon sizib turgandi. Shu ma'noda, «Otamdan qolgan dalalar» – uzoq yillar yig'ilgan dardning misoli vulqonday otilishi, mustamlaka bilan xayrlashayotgan xalqning yig'i – yo'qlovi. Yo'q, mustamlakaga kuyib emas, toptalgan qadri, g'ururini o'ylab chekkan nolasi; yurakni ezadigan, ruhni tushiradigan emas, aksincha, kishi ruhini yuksaltiradigan, qaddini tiklaydigan nola.

«Otamdan qolgan dalalar»ning, umuman, Tog'ay Murod nasrining tili o'ziga xos, uslubi o'ziga xos. Hozircha «Otamdan qolgan dalalar» tanqidchilikda ko'proq g'oyaviy-mazmuniy jihatlaridan kelib chiqib baholandi, uning poetik xususiyatlari, badiiy o'ziga xosligini atroflicha o'rganish, asarning jozibasini ta'min etgan omillarni ochib berish bugun va ertaning vazifasi bo'lib turibdi. Shunga qaramay, bir gapni dadil aytish mumkin: «Otamdanqolgan dalalar»ning janrini roman deymizmi yo boshqami, unda voqelik realistik tasvirlangan deymizmi yo norealistik, yozuvchi munosabatini tendentsioz deymizmi va yo obyektiv – bulardan qat'i nazar, u yurtimiz tarixining muayyan bosqichida vujudga kelgan badiiy fenomen, yaxshiva betakror asarligicha qolaveradi.

«Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romanidagi Botir firqani ko'pchilik «qizil» deb so'kadi, uning faxri bo'lgan ordenlarini uloqtirishni, e'tiqod qilib,

yashab o'tgan umrining mazmuni sifatida har vaqt yonida iftixor bilan olib yurgan partbiletini yoqishni talab qilishadi... «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romani xuddi shunday – minglab «botir firqalar» oyoq qo'ygan zamin birdan yo'qolib, o'tmish va kelajak orasida muallaq turib qolgan bir davrda yozilgan... Tog'ay Murodning hech bir asarida «qizillik» ko'rilmagan? U hechvaqt «qizil» bo'lgan emas. Shunday ekan, u ham ko'p qatori Botir firqani yerparchin qilsa, bundan o'z vaqtida mo'maygina «siyosiy dividend» ola qolsa bo'lmasmidi? Bo'lmas ekanki, Botir firqada bir inson fojiasini ko'rishga intilgan-da... chinakam san'atkor uchun g'oya emas, inson birlamchi degan e'tiqod bilan qalam tebratgan.

Botir firqa ochlikdan nobud bo'lgan hamqishloqlari haqiga duo qilishga chog'landi va shu on yonida NKVDchilar borligini eslab, sezib qolishmadimi, deya hadikda qoldi... Botir firqa ocharchilikka qarshi g'aroyib kurash usulini ko'rib, «O'z el-yurtingiz emasmi, odamga picha botar ekan. Unchamuncha malol kelar ekan», deya ojizgina e'tiroz qildi, dilidaginingozrog'ini tiliga chiqardi. Biroq NKVDchilar bu «Sovet hukumatining buyrug'i! Sovet hukumatining xohish-irodasi! Yoki sovet hukumatidan norozimisiz?» deya uni darhol o'ziga keltirishdi: «Ana shunda, Botir firqa bir seskanib oldi»... Seskangani gunohmi? Darhol o'zini o'nqlab, qaddini tik tutganicha «Yashasin, Sho'ro hukumati!» - deya tantanavor hayqirgani aybmi?.. Ayblashga haqlimizmi?.. Dadil bir narsa deyish qiyin: bu o'rinda har kimning hukmi o'zicha to'g'ri, balki?!. Tog'ay Murod qahramoniga evrilib ko'rdi, Tog'ay Murod qahramoniga yog'ilgan ta'namalomatlarni o'z tanasida sinab ko'rdi... Tog'ay Murod taxminan shunday o'yladi, shu boisgina bizning o'y-mushohadalarimizni ham shu o'zanga soldi, sola bildi.

«Ot kishnagan oqshom» qissasi qahramoni Ziyodullaning adolatsizlik bilan, haqsizlik bilan sira chiqisha olmasligini yodga oling. Ko'pkaridagi

ba'zi g'irromliklardan tutab ketishini aytmaysizmi? Go'yo chavandozlarni emas, o'zini himoya qilayotgandek o'rtanib yozadi Tog'ay Murod. Uning qahramonlari mard, tanti odamlar. Hatto Botir firqada o'ziga zid bo'lgan qahramonning yutug'ini tan ola bilishdek mardlik mujassam. Mustamlaka davrida salkam qulga aylanib qolgan

Dehqonqulning ham mardligi o'ziga yarasha. Uni kambag'al deb mensimagan sotuvchiga ko'rsatib qo'yish uchun bor puliga baxmal xarid qilib, oyog'iga paytavaday o'rab chiqib ketgani bejiz emas.

Tog'ay Murod ijodida xalqona kuymalik, hayotdagi oddiy hodisalardan ulkan badiiy umumlashmalar chiqarish, qahramonlar olamini hayot haqiqati mezonida tasvirlash, jozibali, betakror milliy obrazlar yaratish, milliy udumlar, marosimlar, an'analarni milliy qadriyatlar darajasiga kutarish avval qissalarida, so'ng esa «Otamdan qolgan dalalar» romanida yozuvchining noyob iste'dodidan darak berdi. Oddiy o'zbekning (xoh u chavandoz, xoh dehqon bo'lsin) bag'rikengligi badiiy istiora darajasida talqin etildi. O'zbekona vallamatlik Tog'ay Murod qahramonlarining xarakterini belgilovchi xususiyat bo'ldi, sovet turmush tarzi, paxta monopoliyasining asl basharasi ochib tashlandi.

Ona-Vatanga muhabbat, ona-yerga sadoqat Tog'ay Murod qahramonlarining borlig'iga jonu tan bo'lib singib ketgan. Yozuvchi o'zbek xalqining istiqlolga bo'lgan tashnaligini tasvirlabgina qolmay, quvg'in va qatag'onlarda, yo'qliq va xurliklarda sinmagan o'lmas ruhini yaratdi. Bo'ri polvondagi jo'mardlik Aqrab turboshida Vatan uchun fidoyilikka aylandi. Qoplon bobo va Oymomo buvidagi oqibat, mehr-muhabbat Dehqonboy va uning ayoli timsolidagi dard bo'ldi.

Mustamlaka sharoitida o'zbek oilasining ma'naviy inqirozi, tanazzul sabablari, inson ruhida mutelik holatining yuzaga kelishi yozuvchi Abbas

Saidning «Besh kunlik dunyo» romanida «bobo-ota-o‘g‘il» – uch avlod taqdiri timsolida badiiy talqin qilindi.

Shokir bazzo, Rasul aka, Anvar – bobo, ota, o‘sha obrazlari yozuvchining «Xonchorboha tun cho‘kkanda», «Ray-Hon isi tutgan hovli» qissalarida yordamchi personajlar vazifalarini bajargan bo‘lsalar, «Besh kunlik dunyo» romanida bosh qahramonlar darajasiga ko‘tarildilar. Qissadan romanga, oddiqlikdan murakkablikka yo‘naltirilgan voqealar rivoji turg‘unlik yillarida tubdan chirib borayotgan tuzumning tanazzulga yuz tutgan siyosati muqaddas deb sanalmish o‘zbek oilalariga ham moddiy, ham ruhan ta’sir qilgani, katta bir o‘zbek xonadoni miqyosida yuz berayotgan voqea-hodisalar, tashqi muhit iskanja» sida emirilayotgan botiniy inson olami — ruhining sunib, sinib borayotgani romanning bosh g‘oyasini tashkil etadi. O‘zbekona mulozamat, oriyat, andisha, hatto kibr roman Qahramonlari xarakteri orqali ochila borib, insonning muhitga moslashishi, o‘zi istamagan holda muhit iskanjasiga tushib qolishi ohibatida shaxsni hamisha kurashga chorlab turuvchi ichki «men»idan ajralishi «ruhiy iztirobi» tashqini romanda yozuvchi uslubining ahamiyatga molik shakllaridan hisoblanadi.

Ikkala roman mavzusi, bunday olib qaraganda, bir-biriga yaqin: mustamlaka siyosati davrida tuzum «dasturini» mukammal bajaruvchi «robot-mexanizmlar» hayotining badiiy in’ikosini yaratish. Ammo voqelik talqinida ikkala yozuvchi konsepsiyalari turlicha. Tog‘ay Murod qahramonlari tuzum siyosatini rasman qabul qilsalar-da, ruhan, qalban qabul qilmaydilar, ular ruhida kurash hissi, ona-Yer mehri ustuvorlik qiladi. Hatto turg‘unlik iillarida davlatning «paxta monopoliyasi» siyosatiga kurinmas iplar bilan chambarchas boglangan Dehqonqul siyosat qurboni, ogir mehnat quli bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida esa u ona-Yer fidoyisi, mirishkor dexqon, yer ilmining, paxta ilmining olimi, o‘z mehnatining samarasini ko‘rmagan minglab o‘zbek dehqonlarining biri.

Dexqonqul obrazini, uni o‘rab turgan muhitning badiiy talqinini yaratishda yozuvchi qullagan hajv va kinoya Dehonqul obraziga emas, o‘sha davrga, davr siyosatiga qaratilgan. Romandagi voqea-hodisalar tafsilotlari yozuvchining o‘tkir nigohi, zukko qalbi bilan tanlab olingan, badiiylik baxsh etilgan. Defolyatsiyadan zaharlanib o‘lgan Ziyodning momosining: «Voy bolam-ey, paxtaga yo‘liqan bolam-ey, voy bolam-ey, paxta urib ketgan bolam-ey», degan nolalari soddadil o‘zbek ayolining bo‘sh-bayovligiday, go‘lligiday ko‘rinsa-da, ochofat sovet davlati uchun o‘zbek bolalari takdiri sariq chaqaga ham arzimastligini yozuvchi momoning o‘hu faryodlari orqali ifodalaydi.

Oddiy xalqning ayanchli taqdiri, dardu hasrati kuyunchaklik bilan tasvirlansa, «o‘zidan chiqib, o‘zagini kirquvchi»larning barcha kirdikorlari o‘tkir hajv tigi ostiga olinadi. Maktab direktorining egizak kizlarining biriga Klara Tsetkin sharafiga Klara, ikkinchisiga Roza Lyuksemburg sharafiga Roza deb nom berishida ham bir ramziy ma‘no bor. Hanuzgacha milliy ruhimizga zid Mels (Marks, Engels, Lenin, Stalin nomlarining abriviatursasi), Telman, Oktyabr, Ernest, Marks kabi ismli o‘zbeklar hali ham oramizda uchraydi.

Yoki yarim asrdan ziyod subhidamda yangragan «Assalom, rus xalqi, ulug‘ og‘amiz!», deb boshlanuvchi O‘zbekiston madhiyasini olaylik, qullik iskanjasida to‘tiga aylanayotgan xalqning muteligi bundan ortiq bo‘lmasa kerak, romanda ushbu fakt ham o‘zining badiiy talqinini topgan.

Xalqning muteligi, ruhiy tutkinligi Abbos Saidning «Besh kunlik dunyo» romani qahramonlarining hayotini tasvirida ham ko‘rish mumkin. Nimagadir muteliq kimgadir tobelik Shokir bobo oilasining har bir a‘zosiga o‘z hukmini o‘tkazgan. Shokir bobo, Rasul aka, Anvar mustamlakachilikning turli davrlarida usib-ulgayib, xarakterlari shakllangan.

Shokir bobo guyo bu dunyoning tashvishlaridan, ortiqcha daxmazalaridan charchagan. U ko'nglidagini hech kimga ochmaydi. Uning ko'nglini faqat tushunish kerak. Uning qalbini, orzu-uylarini anglash faqat Anvarga nasib etgan. Bog' yaratib, o'zidan ezgulik qoldirishni niyat qilgan bobosining qalb kechinmalari Anvarning ruhiy iztiroblariga yaqin.

Insonning xayotda har xil ikir-chikirlarga uralashib, faqat shular xususidagina jon kuydirib yashashi oqibatida o'zi ham fikran maydalashib, bachkanalashib borishi Rasul aka va Sobira aya timsolida ko'rsatiladi. Lekin ular tabiatan pastkash odamlar emas. Yillar davomida hayot ularni o'z izmiga buysundirgan. Yoshlik g'ayratini, bilakdagi kuchini xukumat yo'liga baxshida etgan Rasul akaning takdiri to'g'risida hech kim qayg'urmaydi. Arzimagan nafaqa ruzg'orni ulug' uchida tebratishga ham etmaydi. U ruhan sinadi. Tikuvchilik bilan oilasini tebratayotgan xotini o'z mavkeini baland tuta boshlaydi, Rasul akani tez-tez siltalab, jerkib tashlaydigan bo'ladi. Rasul aka dardini ichiga yutadi. Bora-bora tobelik uni engadi, U mutega aylanadi. Endi u nafaqat oilada, tengdoshlari, maqalladoshlari davrasida ham o'zini emin-erkin tuta olmaydi.

Shokir bobo sulolasining uchinchi vakili Anvar yangi davrning farzandi. Ammo bu davrning oldingilardan hech afzalligi yuts. Tuzum nopokligi ta'sirida jamiyat ichini qurt egan ustundek halvirab qolgan. Oqibat, vijdon, diyonat o'zlatga chekingan. Poraxo'rlik, ta'magirlik insonlar o'rtasidagi muomala usuli bo'lib qolgan. Nafaqat davlat korxonalarida, hatto oilada «daromadga qarab buromad», degandek, muomala, murosayu madora. Anvar yosh, xuddi baqordek to'lib-toshgisi, nimalarga qodirligini ko'rsatgisi, ko'ngli buyurganini qilgisi keladi. Uni tushunuvchilar yo'q emas; Shokir bobosi, kasbdoshi Maxmud aka uning ko'ngliga, uy-xayollariga yaqin odamlar. Ammo ular ham davrga tobe.

Murosa yo‘li – tobelik yo‘li deb bilgan Anvar haqiqatni afzal biladi. Lekin u kurashga ham tayyor emas. U yolg‘iz. Negaki, u hayotda kupincha o‘z haqiqatini izlaydi, shuning uchun ham u ko‘pgina hollarda individual.

Qahramonlar xarakterini yaratishda yozuvchi qo‘llagan ruhiy iztirob Tallinn Anvar xarakterida kechayotgan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni tasvirlashda ancha muvaffaqiyatli chiqan.

Shuni aytib o‘tish kerakki, romanlarning o‘ziga xos tuzilishi, syujet qurilishi, badiiy til ifodasi uslub shakllaridan bo‘lsa, tanlangan mavzuga nisbatan yozuvchi kontsepsiyasi (munosabati) uslubning g‘oyaviy-badiiy yunali-shini belgilaydi.

Olim va munaqid M.Qo‘shjonovning «Obrazlarning buyoqdorligi», ifodaning jozibadorligi badiiyatning zarur komponentlaridan, albatta. Biroq bulardan tashqari, roman badiiyatini ta‘minlash uchun yagona birlik, boshqarib boradigan kontsepsiya bo‘lishi kerak, fikriy aniqlik – konsepsiya bu talabning naqadar muhimligini ko‘rsatib turibdi», degan xulosasi romandagi barcha komponentlar bir maqsad yo‘lida xizmat qilishini anglatadi. Bu romanda talqin qilinayotgan mavzuga nisbatan yozuvchining munosabati. Yozuvchi kontsepsiyasi romanda badiiy tizimga solingan uslub shakllarida namoyon bo‘ladi. M.Qo‘shjonov fikriga qo‘shilgan holda aytishimiz mumkinki, yozuvchi konsepsiyasi roman badiiyatini ta‘minlovchi komponentlardan ekan, yozuvchi qo‘llagan uslub romanda o‘z konsepsiyasini yuzaga chiqarishga xizmat kiladi. Demak, yozuvchi qo‘llagan badiiy uslub shakllari konsepsiya ta‘sirida amalga oshiriladi. Badiiy asarda qo‘llagan uslub shakllarining bir-biriga mantiqan bog‘lanishi yozuvchi konsepsiyasini mukammal ochib berilishini ta‘minlaydi.

Yuqoridagi taqlildan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, Tog‘ay Murod ham, Abbos Sayd ham mustabid tuzum davrida o‘zbeklar takdiri mavzusini romanga olib kirishgan. «Otamdan qolgan dalalar»da millat



fojiasining eng og‘riqli nuqtalari – hammamiz ko‘nikib yashab kelayotgan hayot, jafokash o‘zbek dehqonining ayanchli taqdiri, koloniya tartibidagi bolalar mehnati tasvirlangan. «Dehqonlar» romanga shunchaki tashrif buyurmagan. Yozuvchi ularga jon ato etgan, bu jonlarga esa ruh baxshida etgan. Bu kurash ruhi, kurash g‘oyasi.

Tog‘ay Murodning romanga olib kirgan kurash g‘oyasi mustabid tuzum ham sindirib ulgurmagan millatning o‘zini, o‘zligini anglash g‘oyasidir. Xuddi mana shu o‘zini, o‘zligini anglash romanning bosh mavzusi, shu bilan birga yozuvchining konsepsiyasi hamdir. Romanda qo‘llangan uslubning har bir shakli (obraz yaratish, syujet kurilishi, ifoda usuli, ichki monologlar va dialoglar funksiyasi, peyzaj tasviri va h.k) yozuvchi konsepsiyasini to‘laqonli ochib berishga xizmat qilgan. Demak, yozuvchi romanga qo‘ygan maqsad – g‘oya talqini amalga oshgan.

«Besh kunlik dunyo» romanining mavzu manbai «Otamdan qolgan dalalar» romanining mavzu manbasiga davriy yaqin bo‘lsa-da, talqin uchun tanlangan manbaga nisbatan yozuvchilar kontsepsiyalari turlicha, hatto bir-biriga zid. «Otamdan qolgan dalalar»da kurash g‘oyasi ustuvorlik qilsa, ruxsizlik, maslaksizlik, davrga moslashish, zamonasozlik «Besh kunlik dunyo» romani kahramonlariga xos xususiyatdir. Bu hol, ayniqsa, Rasul aka, Mahmud Po‘at obrazlarida yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Romanning bosh qahramoni Anvar asar davomida botiniy ruhiy isyon ta’sirida o‘zining haq-huquqini, haqiqatni yoqlashga harakat qilsada, ruhidagi ikkilanishlar, xarakteridagi subutsizlik uni kuchli shaxs sifatida namoyon qilishiga yo‘l bermaydi. U hayotda davr taqozosi bilan yuzaga kelgan qahramon. Qayta qurishni o‘zidan boshlamoqchi bo‘lgan bizning ziyoli zamondosh. Unda xohish bor, istak bor, ammo uni quvvatlantirib turuvchi manba yo‘q. Faqirdan-da faqir, yerdan-da xor Dehqonqulga xos onayer to‘yg‘usi, faxr yo‘q. Tuzum tazyiqi ta’sirida ruxi singan odamlar (dadasi

Rasul aka, onasi Sobira aya, hamkasblari) muhiti Anvar ruhiga ham ta'sir qilmay qolmagan.

Lekin shuni ham aytish kerakki, romandagi voqealar rivojida badiiy haqiqat tashqini hayot xaqiqati qonuniyatlari bilan uyg'unlashib ketadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, genezisida buyuklar – avliyolar, anbiyolar, allomalar, ulamolar bo'lgan millat tanazzulga yuz tutmaydi, yuz yillik qirg'inda ham u omon qoladi, yuz yillik tutqinlikda ham u ruh erkinligini asrab qoladi. 130 yillik istibdod ta'sirida biz o'z millatimizga xos ana shu ilohiy, shukuxiy irsiyatni rad etgan bo'lsak-da, u ruhimizda yashab keldi, imon, e'tiqod darajasiga ko'tarildi, milliy o'yg'onishga olib keldi.

Roman yaratilishida yozuvchi asosiy konsepsiyasi inqirozga yuz tutgan tuzum sharoitida odamlar (tobelik, mutelik natijasida) ruhining sinishi okibatida jamiyatda «besh kunlik dunyo» o'tadi-da, degan bir loqayd kayfiyat, bo'shliq paydo bo'lishiga qaratilgan bo'lsa, hayotning mantiqiy rivojlanishi asosida yuzaga kelgan Anvar obrazining shakllanishi boshqa yo'nalishda kechadi. Inson botiniy olamining isyoni natijasida Ruh va Vujud birlashishi jarayoni Anvar xarakterida yuz berishi bu tabiiy holdir.

Ruh sinishi, mutelik talqini yozuvchi kontsepsiyasining asosini tashkil qilgani va Anvar obrazining talqini romanda boshqa tamoyilda kechgani uchun roman g'oyasi bir yakdil tizim bilan boshqariladi, deya olmaymiz. Shu sababli romanda voqealar rivojida eng yuqori kulminatsion nuqta sezilmaydi. Romanda badiiy talqin qilingan bir o'zbek oilasining turmushi talqini bunday olib qaraganda bir oilagagina xos mashmashalar bo'lib tuyulishi mumkin, aslida esa ulkan jamiyatga xos o'z hayotidan ko'nikmaslik, ammo mutelik okibatida ruhan sinish romandagi tipik xarakterlar orqali ochib beriladi.

Shuni e'tirof etish kerakki, roman badiiyligi mushtarak bir tizim asosida boshqaradigan yozuvchi kontsepsiyasida ba'zi hollarda mantiliy

mushohadada tafovut seziladi, bunga asosiy sabab romanda yozuvchi qo‘llagan badiiy uslubda badiiy taassubga bog‘lanib qoladi.

Xullas, T.Murodning barcha qissalarida folklordan foydalanish, uning materiallarini qayta ishlash yozuvchining ijodiy uslubini belgilovchi bir omil sifatida ko‘zga tashalandi.

Har bir adib adabiyotga vijdon ishi deb qaragandagina yetuk, har tomonlama barkamol asar yaratish mumkin, hayotning yangi qirralarini kashf etish, ta’sirchan, o‘lmas obrazlar bunyod qilish mumkin. T.Murod ijodga xuddi shunday nuqtai nazardan qarayotgan, o‘ziga nihoyatda talabchan qalamkashlardan biridir.

Ko‘rinadiki, T.Murod folklor materiallaridan shunchaki, asarning yengil o‘qimishini ta’minlovchi, boshqacha aytadigan bo‘lsak, qissalarning xalqchilligini ta’minlash uchun foydalanmaydi. T.Murod boshqa adiblardan farqli o‘laroq kitobxon ko‘z oldida folklordan foydalanuvchi adib emas, balki bevosita folklor asarini yaratuvchi ijodkor sifatida gavdalanadi. Ya’ni u folklordan asar shaklini yuzaga keltirishdagina emas, balki mazmunni maydonga keltirishda ham ustalik bilan foydalanadi.

Barchaga ma’lumki, Tog‘ay Murodning keyingi yillarda yaratgan «Otamdan qolgan dalalar» romani ham keng kitobxonlar ommasi tomonidan va adabiy jamoatchilik tomonidan juda iliq kutib olindi. Sira ikkilanmay shuni ta’kidlash mumkinki, ushbu asarning yutug‘ini ta’minlovchi omillar haqida gapirganda ham yozuvchining xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi, ya’ni qissalarida o‘tkirlashib, charxlangan xalqona uslubi juda katta vazifa bajardi.

---

## X U L O S A

Milliy ruh, o'zbekona bag'ri kenglik, mardlik, o'zlikni anglash, millat istiqloli uchun kurash mustaqillik davri adabiyotining bosh mavzusidir. Milliy ongni, o'zlikni anglatuvchi asarlar yaratgan ijodkorlar orasida Tog'ay Murod o'ziga xos ovoz bilan ajralib turadi.

Tog'ay Murod jahon adabiyoti durdonalarini o'qib-o'rganib milliy adabiyotimiz an'analarida shakllanib ildiz etgan zabardast yozuvchidir. Yozuvchi ijodida umumbashariy adabiyotga xos bo'lgan talqin o'zbek milliy ruhi bilan uyg'unlashtirib yuborilganining shohidi bo'lar ekanmiz, nazarimizda bunday uslub guyo faqat o'zbeklarga yoki faqat Tog'ay Murod qalamigagina mansubdek tuyuladi. Yozuvchi qalamga olgan har bir voqea, obraz orqasida millat taqdiri, oddiy xalq qiyofasi jonlanadi.

Adib ijodida so'z qo'llash san'atini Qahhorona uslubda o'zlashtirgan u har bir so'ziga teran ma'no yuklaydi. Aytgan so'zning tagiga yashiringan so'zlar mavjuddek guyo Tog'ay Murodning «Yosh qalamkashlarga tilaklarim» maqolasida yozuvchilarga qarata shunday so'zlar aytiladi:

«Birodarlar, sizga aytajak uch og'iz gapim bor.

1. Birodar, faqat yolg'iz odam asar izlaydi. Faqat yolg'iz odam asar topadi. Faqat yolg'iz odam asar yaratadi.

Ana shu yolg'iz odam yozuvchilar uyushmasi ostonadan kirib keladi. U zot ham o'ychan ham g'amgin bo'ladi. Mag'rur ham dimog'dor bo'ladi. Salom nima, alik nima-bilmaydi.

Yolg'iz odamni bir qo'ltig'ida Kafka bo'ladi, bir qo'ltig'ida Kamyu bo'ladi. U zot faqat qo'ltig'idagi qalamkashlarini va yolg'iz o'zini tan oladi!

Yolg'iz odam Yozuvchilar uyushmasiga kirish uchun usta yo'llanma olib keladi. Yo'llanmalar mana bunday bo'ladi: «o'z dunyosi bor, o'z yo'li bor, o'z tili bor...»

Go‘yo u zot bu sayyoradan emas, o‘zga sayyoradan. Go‘yo, u er farzand emas, samo farzandi. Xullas... buyuk!»<sup>19</sup>

Tog‘ay Murodning bu maqolasi yuzasidan yondashadigan bo‘lsa u bu ibratomuz so‘zlarni o‘z hayotidan, o‘z kechmishidan, o‘z tabiatidan kelib chiqib xulosa sifatida aytayotganligini anglash mumkin.

Yozuvchining «Gazetaga interv‘yu» maqolasida esa o‘z savoliga o‘zi shunday javob beradi:

«Adabiyot qasrini qanday zabt etsa bo‘ladi?

Adabiyot darvozasidan qanday kirsam bo‘ladi? Asl ijodkor adabiyot qasrini o‘z asarlari bilan zabt etadi. Asl ijodkor el-yurtga «ura-ura» gaplari bilan emas, badiiy asarlari bilan xizmat qiladi»<sup>20</sup>.

Tog‘ay Murod adabiyot qasrining darvozasidan o‘z so‘zi bilan kirib keldi va adabiyot qasriga so‘z me‘mori sifatida ajoyib va go‘zal naqshlar bita olgan adibdir. Bugungi kunda adibning asarlari adabiy kecha, davra suhbatlaridagi muhokamalarda ijobiy baholanib mustaqillik yillaridagi eng yaxshi asarlar sifatida tan olingan. Adib yangi davr adabiyot qanday bo‘lishi, milliy qahramon hayoti va uning talqinlari xususida barchaga ibrat bo‘ladigan darajadagi asarlar yaratdi.

To‘g‘ri ijodkor kimdandir o‘rganadi, kimgadir ergashadi, kimningdir ta‘sirida asar yaratadi. Lekin u albatta kimgadir o‘rgatishni, kimnidir ergashtirmoqni va kimgadir ta‘sir etmoqni ham bilishi lozim.

Tog‘ay Murod ijodi bu yo‘lda namunali estafeta vazifasini bajaradi desak hech qanday mubolag‘a bo‘lmas kerak. U asar yaratganda hatto o‘z qahramonlarining ismini ham shunchaki taplamaydi. Masalan «Otamdan qolgan dalalar» romanidagi avlodning ismlariga nazar tashlang. Jamoliddin, Aqrab, Dehqonqul. Ma‘na ma‘no tushuvchi ismlar, bular orasiga qanday

<sup>19</sup> To‘gay Murod «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi» -T.: 2001. –B.195.

<sup>20</sup> O‘sha asar, 186-bet.

narsalar yashiringanini sezish, anglash zehqli kitobxon uchun qiyinchilik to'g' dirmasa kerak.

Professor O.Sharofiddinov «Adabiyot mangu yashaydi» maqolasida yangi davr adabiyoti haqida yangi davr adabiyot qanday bo'lishi kerakligi haqida g'oyat dolzarb fikrlarni o'rtaga qo'yib shunday degan edi: «Mustaqillik adabiyoti-mazmunan teran, shaklan rang-barang, inson qalbining hamma qirralarini chuqur tadqiq etuvchi, inson haqidagi haqiqatni butun murakkabligi va qarama-qarshiliklari bilan qadrllovchi, insonning ham nurli, yorqin jihatlarini, ham shaytoniy jihatlarini cho'chimay ochib beradigan, xushomaddan tilyog'lamalikdan, xalq madhiyabozlikdan, aravani quruq olib qochishlardan holi adabiyotdir. Bu adabiyot-mustaqillik yo'lidan borayotgan xalqqa munosib bo'lmog'i, jahon maydoniga olib chiqadigan uning yuzini erga qaratmaydigan bo'lmog'i kerak. Bunday adabiyotni yaratishga imkon beradigan yagona omil-iste'doddir».

Shu o'rinda Lev Tolstoyning ushbu o'zlarini ham eslash maqsadga muvofiq bo'ladi «Yozuvchi ijod texnikasini-san'at nazariyasini shu qadar yaxshi bilmog'i kerakki, u to'g'ridan o'ylash ehtiyojini sezmasin. Balki unga nazariya yangiliklar qo'sha olsin».

Tog'ay Murod o'z asarlarida yuqoridagi fikrlarni va ma'suliyatni yuksak saviyada uddalab, o'ziga xos badiiy kashfiyotlar yaratdi. Uning badiiy asarlari tahlili va estetik ma'naviy ahloqiy, falsafiy qarashlari adabiyotning asl mohiyatini to'g'ri tushinish, uning ezgu maqsadlarga xizmat qilishi zarurligi, yozuvchi mahorati va tasvir yo'lining o'ziga xosligi, so'z san'atining sehri, ahamiyati singari masalalarni idrok etishga yo'l ochadi. Bu o'z navbatida o'zbek adabiyotining ma'lum darvdagi rivojlanish yo'llarini taraqqiyot qonunlarini aniqlashga va teran yoritishga asos bo'lib xizmt qiladi.

T.Murod asarlarining muvaffaqiyatini ta'minlagan narsa faqat xalq og'zaki ijodi namunalariga yaqinligidir, desak, albatta, bir tomonlama baho

berilgan bo'lardi. T.Murodning shuhratiga shuhrat qo'shgan omillardan yana biri uning qahramonlaridir. Ular g'oyat oddiy, siz bilan bizning oramizdagi, har kuni ko'rib, suhbatlashib yurgan odamlar. Lekin ularni ajratib turadigan xosiyatlari bor. Ular «chin gaplar ko'ngilda bo'ladi», deb fikrlovchi to'g'riso'z, diyonatli, halol va pokiza, ma'naviy olami go'zal, tanti kishilar. To'g'ri, bunday xususiyatlar siz bilan bizda ham uchrashi mumkin. Biroq T.Murod qahramonlari – Bo'ri polvonda ham, Ziyodulla kalda ham, Qoplonda ham bu xislatlar ularning hayotiy tamoyillariga aylangan. Ular hech qachon xoh katta, xoh kichik ishda o'z vijdonlari ovozigacha qarshi bormaydilar, e'tiqodlaridan qaytmaydilar. Xuddi shu xususiyatlari bilan kitobxon mehrini qozondilar.

T.Murod dastlabki ikki qissasida negadir ayollar obraziga unchalik e'tibor bermaydi. «Oydinda yurgan odamlar» qissasida ijodidagi ushbu kemptikni to'ldirdi. Asardagi Oymomo obrazi har tomonlama pishiq va puxta ishlanganligi bilan yozuvchi asaridagi boshqa qahramonlardan qolishmaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, «O‘zbekiston» 1992.
2. Karimov I. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent, «O‘zbekiston» 1992.
3. Karimov I. Istiqlol va ma’naviyat. Toshkent, «O‘zbekiston» 1994.
4. Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent, «O‘zbekiston», 1993.
5. Hozirgi o‘zbek adabiyotining milliy o‘ziga xosligi. Toshkent, «Fan» 1984.
6. Qo‘shjonov M. Ijod mas’uliyati. Toshkent, «Fan». 1981.
7. Karimov N, Nazarov B., Normatov U., Mamajonov S., Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, «O‘qituvchi». 1999.
8. Boboev T. «Adabiyotshunoslik asoslari» Toshkent, «O‘qituvchi». 2002.
9. Solijonov Y. Roman kashfiyotlar manbaidir. // «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati». 2003, №5. 3-bet.
10. Pardaeva z. Romanning taraqqiyot tamoyillari. // «Yoshlik». 2002. №5-6, 37-bet.
11. Normatov U. Eng muhim muammo. // «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati». 2003, 21-mart.
12. Rasulov A. Yangilanayotgan roman. // «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati». 2003, 22-avgust.
13. Rasulov A. Tarix, falsafa roman // «Jahon adabiyoti». 2003, №9. 163-bet.
14. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. Toshkent. 2000.
15. Pardaev Z. Yoshlar nasrida badiiy me’yor. // «Yoshlik» 2002. №2.
16. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim? // «O‘zbek tili va adabiyoti». 2001. 6-son.



17. Soibjonov R. Badiiy to'qima va tarixiy haqiqat nisbati. // «O'zbek tili va adabiyoti». 2004. 6-son.
18. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va me'zonlari. Toshkent. 2004.
19. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, «Sharq» 2002.
20. Xolmurodov A. Ruhiy kechinma va uning badiiy ifodasi. // O'zbek tili va adabiyoti. 1999. 3-son.
21. Xolmurodov A. Yozuvchining xarakter yaratish mahorati. // «O'zbek tili va adabiyoti». 2003. 5-son.
22. Sharafiddinov O. Adabiyot, tanqid va yangi tafakkur. // «O'zbek adabiyoti va san'ati». 2001 yil. 19 oktyabr.
23. Tog'ay Murod. «Otamdan qolgan dalalar». Toshkent. «Sharq», 1998.
24. Tog'ay Murod. «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi». Toshkent. «Sharq», 2001.